

**ЎZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**Kasb ta'limi fakulteti 5 140901-Kasb ta'limi (iqtisodiyot) bakalavr
ta'lim yo'nalishi talabasi Qo'ziyeva Gulhayoning**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «Fermer xo'jaliklarida takror ishlab chiqarishning iqtisodiy
samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusi bo'yicha dars o'tish
uslubiyoti**

Rahbar:

I.Normamatov

Maslahatchi:

E.T.Jumayev

Ish bajaruvchi:

G.Qo'ziyeva

«Himoyaga ruxsat etildi»

«KT va P» kafedrası

madiri Z.L.Botirov

« 22 » 06 2012 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»

«Kasb ta'limi» fakulteti

dekani H.A.Ravshanov

« 22 » 06 2012 y.

QARSHI-2012 y.

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Karb-ta'limi fakulteti
RT (Kuliyat - iqtisodiy xodim) ta'lim yo'nalishi

«TASDIQLAYMAN»

„KosbT va P“ kaf.mudiri

dots. Z.L. Botirov
(imzo, f.i.sh)

«18» xi 2011 y

Bitiruv malakaviy ishi uchun

TOPSHIRIQ

Talaba Dorinova Gulnora ga

1. Malakaviy ish mavzusi "Fermer xo'jaliklarida savarot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari, mavzuni bo'yicha dars o'tish usuli-hiyati."

institutning № 5507 buyrug'i bilan 18.XI.2011. da tasdiqlangan.

2. Malakaviy ishni topshirish muddati karb-hisob hollilari eguvs

3. Malakaviy ish uchun ma'lumot karb-hisob hollilari eguvs
uzumiy hisobotlari, eguvs adabiyotlari, BMTL ni
tasvirlash bo'yicha ulduz xizmatkorlar to'g'risidagi ma'lumot

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati) Kirik, Far va mavzuning davriy 1. O'qitish
metodlarining umumiy me'natlari. 2. Iqtisodiy - iqtisodiy
metodlari mavzuni. 3. Nazariy dars o'tish
metodlari. 4. Amaliy dars o'tish
metodlari.

5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar) Uzum va
karb xo'jaliklari iqtisodi. fanining bo'liqligi. 2) Eguv jarayoni tuzilishi
3) Eguvda ish me'natlari va uning ish turlari bo'yicha tasvirlanishi.
4) Traktor remontlari texnik qismini. 5) xo'jalikning ish turlari
bo'yicha saqlanishi. 6) Guldon, fermer xo'jaligining 3 yillik
hisobotlari. 7) Traktorlarni texnik qismining o'tkazish.

6. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar Yqumun metodlari
bu yuzda maslahatchi:

Yqumun 3. Ilyumov

7. Malakaviy ishini bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

Sanalar sani	Malakaviy ish bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi beti	Umumiy hajmga nisbatan %	Bajarilganligi to'g'risidagi belgi	Izoh
1	Kitob for va mavzu- ning tashqi.	11	9,32	bajarildi	a'lo
2	Öqitish metodlari- ning umumiy me- salarini.	47	39,83	bajarildi	a'lo
3	Formal rōjaligi'de kaxer uflab chi- qarishning iqtiso- diy samaradorligi- ni oshirish va uni tashmillashtirish- ning samaradorligi yo'llari	28	23,72	bajarildi	a'lo
4	Maizni tōyicha dars ishlanmalarini ishlab chi- qish.	11	9,32	bajarildi	a'lo
5	Amaliy yori seni- nar mashq o'te- rini o'tish metodi vori.	15	12,74	bajarildi	a'lo
6	qulog' va tashif lar.	4	3,38	bajarildi	a'lo
7	Foydalanilgan ad- biyotlar.	2	1,69	bajarildi	a'lo
		118	100 %		

Malakaviy ish rahbari

Giyovul

Topshiriq olingan kun

18. XI 2011-y.

Talaba

Özrigeva Gulnora Rashidovna

Kirish

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma'rifati kunda kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yish maqsadiga erishishni amalga oshirmoqda.

Ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining joriy etilishi esa o'z navbatida dunyo andozasiga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shunga asosan men «Fermer xo'jaliklarida takror ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusini pedagogik Sinkveyn metodi asosida o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish bilan birga mavzuning nazariy, amaliy va qo'yilgan masalaning iqtisodiy nuqtai nazardan yechimlari keltirildi.

Mamlakatimizda, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqbol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushoxada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash xamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborat-kommunikatsiya tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan soxalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'ymoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz iqtisodiyotining agrar tarmog'ida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida turli xil xo'jalik yuritish shakllariga asoslangan xo'jaliklar rivoj topib, ko'p ukladli iqtisodiyotning paydo bo'lishiga zamin yaratildi va boshqariladigan bozor munosabatlari tizimiga o'tishga, agrar sohada ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan qayta qurishga imkoniyat tug'ildi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining asosiy shartlaridan biri bu ma'lum bir mulk shaklining yakka hokimligiga yo'l qo'yimaslik orqali iqtisodiy raqobat uchun zamin yaratish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy mezoni hisoblanadi. Tannarx ishlab chiqarishga, xizmat ko'rsatishga va realizatsiya qilishga sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir. Tannarx so'm ko'rinishida o'lchanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, foydalilik darajasini ko'paytirib borish, sarflangan resurslar tejmkorligiga qat'iy amal qilish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturining 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'yicha iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Bunda asosan mahsulot tannarxini pasaytirish, bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlash, eksportyor korxonalariga soliq bo'yicha imtiyozlar

berish, ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari belgilangan. Tanlangan mavzuning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan muammolar yechimini topish bilan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv-tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich hal etish yo'llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat hujjatlarida belgilab berilgan. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni ta'lim-tarbiyalash, uni shakllantirish va rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'limni rivojlantirish kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlari, milliy istiqloq g'oyasi bo'yicha dasturlar asosida tashkil etildi. Har bir fan yangi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni, ularning elektron talqini, amaliy ish va laboratoriya uslubiy ishlanmalari bilan ta'minlandi. Ularning moddiy texnik bazasi yanada yaxshilandi, axborot-resurs markazlari tashkil etilib takomillashdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Uzluksiz ta'limning aynan shu bo'g'ini bevosita ishlab chiqarish uchun kadrlar tayyorlab beradi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlari ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablari asosida tashkil qiladigan, yangicha fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali pedagog va iqtisodchi - pedagoglarga ehtiyoj katta. Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari uchun yetuk, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, har tomonlama bilimdon mutaxassislar tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir.

Мавзунинг обекти ва ҳажми битирув малакавий ишининг обекти Косон тумани “Гулшан” фермер хўжалиги ҳисобланади. Малакавий ишни ёзишда хўжаликнинг барака иқтисодий кўрсаткичлари ўрганилган ва кўрсаткичлари чуқур анализ қилинган. Мавзуни ёритиб боришда битирув малакавий ишининг режасига биноан I, II, III боблар хулоса ва таклифлар қисмлари ишлаб чиқилган.

1. Fan va mavzuning tavsifi

1.1. Kasb-hunar kollejlari «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi» fanining tutgan o'rnini va fanlararo bog'lanishi


«Ta'lim tug'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim turlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'ini hisoblangan ushbu ta'lim turi ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar tayyorlab beradi. Shuning uchun ham kasb-hunar kollejlari

ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablari asosida tashkil qiladigan, salohiyatli, yangicha fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali iqtisodchi-pedagoglarga bo'lgan ehtiyoj katta.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan malakali kadrlar «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi» fanini mukammal o'rganish bilan bir qatorda umum iqtisodiy fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi ishlarini yuqori saviyada tashkil etish ko'p jihatdan mamlakatimizdagi xalq xo'jaligining turli sohalarini mutaxassislar va malakali iqtisodchilar bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida kasb-hunar kollejlarda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlashni taqazo qiladi. Shunday ekan kasb-hunar ta'limi fanlar blokidagi «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi» fanining qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon va fermer xo'jaliklari uchun malakali kadrlar tayyorlab berishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda har bir jamiyat a'zosining oldida Bozor iqtisodiyoti qonunlari, uning O'zbekiston Respublikasida qanday amalga oshirilayotganini, bu qonunlarni ishlab chiqarishga tadbiriq etishni bilishi ta'kidlanadi. Kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan malakali kadrlarning «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi» fanini chuqur o'rganishi, shuningdek o'quvchilar tadqiqot ishlarida muayyan ko'nikmalarga, ushbu fanlar tizimida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi zarur.

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi» fani quyidagi fanlar bilan o'zaro bog'liqdir.



1.1-rasm. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi fanining fanlararo bog'liqligi

1.2. Tanlangan mavzuning dolzarbligi

«Ta'lim tug'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yosh avlodni milliy istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalash, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalarni milliy ta'lim-tarbiya an'analari asosiga qurish masalalari ko'tarilgan va shu muammoni hal qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan. Bu ikkita Qonun hujjati asosida amalga oshirilayotgan mislsiz islohatlar kasb-hunar ta'limi tizimida ham tub islohatlarning o'tkazilishini ta'minlab, har bir o'quvchi va o'qituvchining o'z burchlari hamda vazifalarini ongli bajarishga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdir. Shuningdek, ta'limning samarali kechishini ta'minlash omili sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning texnik vositalaridan o'z o'rnida foydalanishni talab qiladi. Aynan ta'lim tizimimiz uchun yangi pog'ona bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida zamonaviy o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish masalalari o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish, o'quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirish borasida ta'lim metodlari va o'qitishning texnik vositalarining tutgan o'рни samarali va ahamiyatli bo'lib, u asosan quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- o'quv jarayonidan ko'zlangan maqsadga aniq erishishni;
- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida aloqalarning takomillanishi;
- o'quvchining bilish faoliyatini jonlantirish va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishishni;
- motivatsiyaning yuqori daraja bo'lishi;
- o'tilgan material yaxshi eslab qolinadi;
- jonli muloqotga kirishish ko'nikmasi takomillashadi;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan (qiziqish) munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi va muammolarni yechish ko'nikmalari shakllanadi.

Mana shunday mulohazalarga asoslangan holda tanlangan mavzu dolzarb ahamiyatga ega.

1.3. Kasb-hunar kollejlarning maqsad va vazifalari

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirishi va tanlangan ixtisosliklarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Kasb -hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Ta'lim tizimida kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb - hunar o'quv yurtidir. Kasb-

hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar ta'limini tashkil etish uchun quyidagilar zarur:

- kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishning normativ bazalarining ishlab chiqarish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- kasb-hunar ta'limini davlat standartlari asosida ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb - hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jug'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- kasb-hunar kollejlarning moddiy - texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Kasb -hunar kollejlari ta'limi sifatini yaxshilash maqsadida professor-o'qituvchilar davlat attestatsiyasidan o'tkazilishi va ta'lim oluvchilarning bilimni reyting asosida baholash tizimi tadbiq etilishi lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichida ko'zda tutilgan masalalarni ijobiy hal etish sohasida kasb-hunar kollejlari faoliyati ham yanada yaxshilandi. Shuning natijasi o'laroq, kasb-hunar kolleji o'quvchilariga o'z yo'nalishlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

2. O'qitish metodikasining umumiy masalalari

2.1. Didaktikaning mohiyati.

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "Didasko" so'zidan olingan bo'lib, "Uqitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish obyekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Albatta, avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va

xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;

Kerakli malakalarga ega bo'ladi;

Ko'nikmalar hosil qiladi;

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan xaqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmaganda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon yetkazmagan holda yechimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy

shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ta'limning yana bir o'ziga xos xususiyati uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligidir. Har qanday tarbiya asosida bilim mavjud bo'lganidek har qanday ta'lim o'zida ma'lum tarbiyaviy ta'sirni mujassamlashtiradi. Bilimlarning talabaniq faqat fikrlash qobiliyatiga emas, balki ichki kechinmalariga, his-tuyg'ulariga, fazilatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarni o'rganish talabaniq ma'naviyatini shakllanishida ahamiyatlidir. Shuning uchun ta'lim muassasalari tarixan faqat ilm maskanlarigina bo'lib qolmasdan, balki tarbiya uchoqlari sifatida ham qabul qilingan. Ta'lim va tarbiya bir jarayonning ikki tomoni bo'lib, biri-birini to'ldirib keladi. Bilim bu kuch-qudrat, ana shu kuch-qudrat ma'naviyati yetuk inson qo'lida rivojlanishga xizmat qiladi. Ma'nau qashshoq inson bu qudratdan noo'rin foydalanishi va jamiyatga ziyon yetkazishi ehtimoldan holi emas. Bunday holatlar tarixda juda ko'p marotaba takrorlangan va bu isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylangan. Demak, ta'lim albatta tarbiyaviy asosga ega bo'lishi va talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyalashdek murakkab jarayonini ham o'z zimmasiga olishi lozim.

Ta'lim jarayoni ta'sirida talabaniq aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirish va yangi pog'onaga ko'tarish asosiy masalalardan biridir. Aynan ta'limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qiladi.

Zaruriy rivojlanish. Bu o'quvchi tayyorgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, talabadagi bor daraja, ya'ni talabaniq bugungi o'quv jarayonigacha bo'lgan tayyorgarlik darajasidir. Bu daraja talabaniq ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori darajadagi rivojlanish. Boshqacha qilib aytganda, shu dars davomida ko'tarilish kerak bo'lgan darajadir. Bu talaba hozircha qila olmaydigan, lekin ko'mak vositasida eplay oladigan ishdir. Talaba ana shu o'zi uchun yangi bo'lgan va bajarishga kuchi yetadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko'tariladi. Lekin bu vazifa talabaniq taraqqiyot zonasida joylashgan bo'lishi shart, aks holda rivojlanishga erishish qiyin. Yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasiga kirgan har narsa ta'lim jarayonida zarur rivojlanish darajasiga o'tadi.

Shunday qilib, yaqinlashib qolgan taraqqiyot zonasi rivojlanishdan ilgarilab ketadigan ta'lim vositasida yaratiladi. Ta'limning har bir bosqichi taraqqiyotning erishilgan bosqichiga tayanadi va muayyan bosqichni ko'zlagan holda navbatdagi bosqichni tayyorlab beradi.

Demak, ta'limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir.

Ta'limning ana shu yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularga amal qilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.
2. Talabalarda dunyoqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o'stirish.
3. Talabalarning ma'naviyatini boyitish va tarbiyalash.
4. Yoshlarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va iste'dodlarini ochish hamda o'stirish.

Ushbu vazifalarni bajarishda differensiyalashgan yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, differensiatsiya (ya'ni yakka holdagi yondoshuv) talaba shaxsini chuqurroq o'rganishga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Talaba shaxsi chuqurroq o'rganilgandan keyingina unga mos bo'lgan metodlar tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Barcha talabalar uchun umumiy metodlar qo'llash ta'limni ko'r-kona olib borish bilan barobar va bu holda ta'limning samarasini juda past darajaga ega bo'ladi. Ta'limni differensiatsiyalash muammosi hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ma'lum darajada o'z yechimini topmoqda va aytish kerakki, bu yechimlar ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishga yordam bermoqda.

Ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Albatta ta'lim tizimini samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta'limning mazmuni: o'quv rejalarida, dasturlarda va darsliklarda aks ettirilgandir.

O'quv rejasi-muayyan o'quv yurtida o'rganilayotgan o'quv predmetlari aytib o'tiladigan, ularni o'quv yillari bo'yicha o'tish izchilligi hamda bir o'quv yiliga yoki har bir haftaga ajratilgan soatlar soni ko'rsatilgan davlat hujjati o'quv rejasi deb aytiladi.

O'quv predmeti-o'ziga tegishli fan asoslarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Fanning asosiy tushunchalar tizimi, asosiy qoidalar va xulosalar unda o'z aksini topadi.

O'quv dasturi-o'quv dasturi davlat hujjati bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o'quv yilida o'zlashtirilib olish uchun zarur bo'lgan bilim. Ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. Dasturlar bir tipdagi hamma ukuv

muassasalari uchun yagona, uning to'la hajmda bajarilishi majburiy. Bu eng muhim qoida bo'lib, uzluksizlikni ta'minlaydi. Dastur tushuntirish xatidan, bo'lim va mavzular bo'yicha taxminiy soatlar hisobidan, dastur materiallari va tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari-maxsus ravishda talabalar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi. Unda o'quv dasturining barcha materiallarini batafsil va izchillik bilan ochib beriladi. Darsliklar o'quv materialini tezroq, to'laroq va chuqurroq egallab olishga yordam beruvchi o'quv qo'llanmalari bilan to'ldirilishi mumkin.

Har bir fan o'zining tushunchalariga ega. Mana shu asosiy tushunchalar har bir fanning o'zagini tashkil etadi. Masalan: Matematikada-qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, ildiz kabi tushunchalar mavjud. Ximiya fanida reaksiya, ishqor, kislota, tuz kabi tushunchalar ishlatiladi. Pedagogika fani ham o'zining asosiy tushunchalariga ega. Ularni ba'zan kategoriyalar deb ham ataladi.

a) Ma'lumot-ta'lim-tarbiya natijasida olingan va sistemalashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmui. Ma'lumot ta'lim asosida amalga oshiriladi va shaxsning qobiliyati hamda iste'dodi rivojlantiriladi.

B) Ta'lim - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan va shuning bilan birga, ularning bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni pedagog va talabalarning birgalikdagi faoliyati natijasida vujudga keladi.

V) Pedagogning ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan faoliyatini o'qitish deb ataladi. O'quv jarayoni pedagogning rahbarligida olib boriladi. Talabaning o'quv jarayoni davomidagi faoliyatini esa o'rganish deb ataladi. O'rganish, o'qish talabaning faol ishtirokini talab etadigan murakkab jarayondir. O'qish, o'rganish faoliyati talabaning mustaqil ta'lim olishida ham namoyon bo'ladi.

G) Didaktikaning tamoyillari - komil insonni tarbiyalashda o'qish va o'qitish jarayonining xususiyatlari, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, egallanishi lozim deb topilgan malaka va ko'nikmalarni hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga didaktika tamoyillari har ikkala faoliyatni, ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi

Demak, o'qitish tamoyillari ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

D) "Metod"-so'zi grekcha-methodos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yo'l-yo'rik degan ma'noni anglatadi. O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida pedagog va talabalarning ko'zlangan maqsadga erishish uchun qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Demak o'qitish metodlari pedagogning dars jarayonida talabalarda bilim, malaka va kinikmalarni hosil qilish faoliyatida qo'llaniladigan yo'l-usullarini o'z ichiga oladi.

Ibn Sino talabaga bilim berishda o'qituvchining pedagogik ma-horati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituv-chi bolalarga bilim berishga

kirishishdan avval, ularning xulq-at-vorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm tu-rini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

– bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo'lishi, berilayotgan bi-limning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;

– ta'limda turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanishi;

– talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shax-siy xususiyatlarini bilishi;

– fanga qiziqitira olishi;

– berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

– bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy dara-jasiga mos ravishda berishi;

– har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'-lishiga erishishi zarur".

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o'qitishdan ko'-ra jamoa, sinf tartibida o'qitishni afzal, deb biladi va bu uslub-ning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: "O'quv-chilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bi-limlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga ha-vas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplasha-dilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar".

Umuman, ibn Sinoning ta'lim texnologiyasida o'qitish jarayo-nida qaysi uslublardan foydalanilmasin – og'zaki ifodami, bi-limlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishlardagi suhbatmi, taj-ribalarni, baribir, talabada haqiqiy bilim hosil qilish, musta-qil, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va taj-ribalarga tayanish, olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qo-biliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Movarounnahrda va butun musulmon olamida naqshbandiya ta'-limotining buyuk namoyandalaridan biri Hoja Bahouddin Naqsh-band (1318-1389) o'z shogirdlari orasida bot-bot takrorlaydigan quyidagi ta'lim maqsadi, vositasi va o'qitish uslublari o'z ifoda-sini topganligi shubhasizdir:

"Nabini, vaqti suftan mardi haqnok, Ba shogirdon dixal durri xatarnok".

Mazmuni: "Ko'rmaysanmi, durga shakl beruvchi usta dur-ni teshayotgan paytda xatarnok (nozik va qimmatbaho) durni teshish-ni shogirdiga topshiradi". Haqiqatan ham, bunday ta'lim uslubini qo'llashda shogirda ham ta'lim subyektiga aylanadi.


Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449) Movarounnahr shahar-larini, xususan, Samarqand va Buxoroni ilm-ma'rifat dargohiga aylantiradi, madrasalarning peshtoqiga esa:"Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir". (ya'ni: "Bilim olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir") degan hadisda hikmatni yozdirib qo'yadi. Madrasalardagi o'quv tizimini isloh qilib, fala-kiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi va o'qish-o'qitish uslu-bini yaxshilashga jiddiy e'tibor berdi. Ulug'bek bunyod etgan mad-rasa bilan rasadxona orasida mustahkam aloqa bor edi. U madra-

sada berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsa-dida mudarrislardan talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'u-lotlar o'tkazishni talab etib, bunga bevosita o'zi rahbarlik qila-di, mudarrislarining mas'uliyatini va pedagogik mahoratini oshi-rishga intiladi. Ulug'bekning fikricha, talabalarning bilim olish-ni istamasligi va zerikishi mudarrislarining uquvsizligidandir, chunki bunday mudarris-tarbiyachilar ta'lim usullarini noto'g'ri qo'llash bilan talabalarning bilimga qiziqishini so'ndira-di. Mudarris, avvalambor, o'zini tarbiyalashi, bilim va mudarris-lik malakalarini egallashi lozim. Shu bois Ulug'bek mudarrisni o'z ustida tinmay ishlashga, bilimlarini takomillashtirib borish-ga, har bir darsda beriladigan bilimning yuqori saviyada bo'lishiga e'tibor berishga da'vat etgan. Shundagina mudarrislar tala-balarda ijodkorlikni, mustaqil mutolaa qilish malakasini o's-tirishga, ularning bilimga qiziqishlarini kuchaytirishga, dars pay-tida etiborsizlik va tartibsizlik qilmasliklariga erishadi.

2.2. Kasb-hunar kollejlari o'qitish jarayonining mohiyati

Kasb-hunar kollejlari o'qitish jarayoni ham boshqa ta'lim turlari singari ikki faoliyatga asoslanadi, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Avvalo jarayon – bu lotinchadan olingan bo'lib, oldinga harakat qilish tushuniladi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni - o'quvchi (talaba)ning bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha to'liq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. o'qituvchi bilim egallash yo'llarini o'quvchi-talabalarga ko'rsatadi, ya'ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo'lmagan bola ongida vositachilik qiladi. o'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta uylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. Ta'lim jarayoni - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining belgilangan maqsadga qaratilgan hamda oldindan ko'zlangan natijaga olib boruvchi o'zaro faoliyatidir, ya'ni ta'lim jarayoni ikki faoliyat - o'qituvchi va o'quvchi (talaba) larning birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi.



2.1 - rasm. O'quv jarayoni tuzilishi

Zamonaviy psixologo-pedagogik fanlar erishgan yutuqlarga binoan istalgan o'quv jarayoni uchta bir-biri bilan bog'liq qism (komponent)dan iborat:

1. Motiv (M).
2. O'quvchining o'qish (o'zlashtirish) faoliyati (O'F).
3. O'quvchining bilish faoliyatini boshqarish (B).

Boshqarish vazifasini o'qituvchi yoki texnik vositalar bajaradi. Demak, o'quv jarayonini (O'J) quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin:

$$O'J = M + O'F + B$$

1. O'qish motivlari. Agar ta'lim jarayonida o'quv ishi (vazifasi) talaba uchun biror shaxsiy qimmatga ega bo'lsagina, kishida unga qiziqish uyg'onishi mumkin. «Motiv» tushunchasi ehtiyoj, intilish, xoxish, mayl, qiziqish kabi ma'nolarni anglatadi.

2. Talabanning o'quv-bilish faoliyati. Bilim olish uchun motiv hosil qilish bilan birga talaba o'quv materialini o'zlashtirishga imkon yaratadigan o'quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur, ya'ni o'quvchining o'zi faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak. O'qituvchining vazifasi - bilim olishning qulay texnologiyasini tanlab, o'quvchilarga uni bajarish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

3. O'quv - bilish faoliyatini boshqarish. Ta'lim jarayonini boshqarish usuli ham to'g'ri tanlangan taqdirdagina o'quv jarayoni tugallangan hisoblanadi. O'quv jarayonini boshqarish zarurligi insonning bilim o'zlashtirish xususiyatidan kelib chiqadi. Demak o'quv jarayonida boshqarish vazifasini o'qituvchi yoki texnik vositalar bajaradi. O'quv jarayoni takrorlanadigan (algoritmik) shaklga ega bo'lgani uchun modul xarakterini kasb etadi, alohida blok (qism) larga ajratiladi, ular turli

mazmunga, lekin umumiy tuzilishga ega bo'ladi. O'quv jarayoni quyidagi tuzilishga ega:

O'quv jarayonining hamma bosqichlarida asosiy e'tibor ta'lim natijasiga erishishga qaratiladi.

Kasb-hunar kollejlarda o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil etishning ko'p qirrali yagona tizimiga asosan amalga oshiriladi. Kollejlardagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;

- talabalarining o'quv va bilish faoliyati.

Demak, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega, chunki unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi qatnashadi. o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. o'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi. o'qituvchi o'quvchilar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokozalar bilan yoshlarning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi.

o'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. o'quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, ya'ni u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushunib oladi. Ta'lim jarayonida ana shu ikkala tomon yaxshi qatnashmasa ta'lim jarayoni yaxshi natijaga erishmaydi.

Kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari asosi o'rganiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda ishlab chiqarishda qullay bilishga o'rgatadi. o'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo'lishi lozim. o'qituvchi bilimlarni o'rgatar ekan, o'sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarini ko'radi, ularni bartaraf etish choralari izlaydi.

Shunday ekan, o'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim.

2.3. Didaktik prinsiplarni o'quv jarayoniga qo'llash

Ta'limni tashkil etishda o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik prinsip (qonuniyat) larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Ta'lim jarayonida ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ta'lim qonuniyatlari bu - o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar yig'indisidir. Ta'lim prinsip (qonuniyat) lari deb, ta'limning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o'qitish uchun asos bo'ladigan qonuniyatlar, qoidalarga aytamiz. Ta'lim qonuniyatlari o'quvchi va o'qituvchi orasidagi eng muhim ichki ahamiyatni aks ettiradi. o'qitishning prinsiplaridan uning qoidalari kelib chiqadi va ular u yoki bu

prinsiplarning xususiy qoidalarini aks ettiradi. Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali qurish – bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir. o'qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni o'qitish qoidalarini deb ataydilar.

Ta'lim qoidalarini - o'qitishning faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l - yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim qoidalarini deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi. So'ngi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta'lim qoidalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ta'limning ilmiy bo'lish qoidasi. Ta'limning ilmiyligi qoidasi o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Nazariy qoidalarni tushunish- materialni ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo'lib, u o'quvchining fikrlash faoliyati xususiyatlarini belgilaydi.

2. Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi qoidasi. o'qituvchining bilimlarni tizimli bayon qilishi o'quvchilarga o'quv predmetining strukturasi va mantiqini chuqurroq tushunish, fanning bosh g'oyasi va asosiy qoidalarini ajratish, tabiat va jamiyat hodisalari o'rtasidagi ichki bog'lanishni aniqlash imkonini beradi. o'qitishning tizimlilikligi o'qitishda muvaffaqiyat garovi bo'lib, fikrlarni tartibga soladi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi hamda yaxshilaydi. Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganlarga zamin hozirlasin. Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir.

3. Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi. Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va yetakchi qoidalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega

4. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishi qoidasi. Didaktikada ta'limni turmush bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab olib borish eng asosiy va yetakchi qoidadir. Har bir fanni nazariy tushuntirish bilan birga uni amaliy tomonini, amaliyotga tadbiq etish yo'llarini ham o'rganish lozim. Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qiladilar.

5. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi. o'qitish jarayonida onglilik va faollik qoidasi o'quvchilarda tafakkur va nutqni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi, avvalo ularning aqliy faoliyati – tafakkur qilish faoliyatidir.

6. Ta'limda ko'rsatmalilik qoidasi. Bu qoida didaktik qoidalardan biri bo'lib, u o'qitish jarayonining sifatini orttiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ko'rsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

7. Ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish va ta'limning o'quvchiga mos bo'lishi qoidasi. Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish va o'rganish hamda shu xususiyatga mos muomala qilish hal qiluvchi o'rin tutadi. Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi qoidasi bu- o'quv materiallarining mazmuni, uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, aqliy qobiliyati, umumiy tayyorgarligi-saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

8. Puxtalik. Ta'lim jarayonidan ko'zlangan natijaga erishish uchun dars puxta rejalashtirilgan bo'lishi lozim.

9. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri. O'qituvchi faoliyati ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorni u tarbiyalovchilik xarakteriga ham ega, chunki u ta'lim va tarbiya ijodkori hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etishda har bir pedagogdan darsni didaktik qonuniyatlar asosida tashkil etishni talab etadi, chunki ta'limning barcha bosqichlarida hamma fanlarni o'qitishda ana shu qonuniyatlarga amal qilish zarur.

2.4. Kasb-hunar kollejlarda o'qitishning mazmuni

Kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklarga ega bo'lishni ta'minlaydi hamda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Kasb-hunar kollejlarda ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning ma'lum yig'indisini faoliyat va munosabatlarining tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natijasi sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Mamlakatimizda kasb-hunar kollejlarda ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

o'quv rejasi – davlat hujjatidir. o'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. o'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. o'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. o'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. o'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi.

Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linish, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. Darslik - o'quvchilarning ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.

Darslik -o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qullanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va hokazolar shular jumlasidandir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurti bo'lib, unda o'quvchilar tegishli sohalar bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib, kasb-hunarga o'rganadilar. Demak, uch yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim yo'nalishlarini yoshlar o'zi iqtidorlari va istaklaridan kelib chiqib, ixtiyoriy tanlaydilar.

2.5. Darsning tashkiliy shakllarini tanlash va asoslash

Ta'limning tashkiliy shakllari

Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi. Y. A. Komesnkiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi.

O'lkamizga ta'limning mukammal jamoa shakli bo'lgan sinf-dars tizimi XX asr boshlarida kirib keldi, shu asnoda rus tuzim maktablari, gimnaziyalarda o'quv jarayoni sinf-dars tizimida olib borila boshladi. Aynan shu davrda Turkistonda jadid usulidagi maktablarning kirib kelishi sinf-dars tizimiga asoslanadi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchi o'qish jarayonining tuzilish elementlari, xususan o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshuvi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iborat.

2.6. Dars -o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy tashkiliy shakli

Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning barcha didaktik elementlari mujassamlangan. Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy tashkiliy shaklidir. Sinf-yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir.

Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.

2. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb ataladi. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir. Tajribali va mahoratli o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa – butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qitirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi, turli xil ta'lim metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarga ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularga yangi materialni bayon qilishi dars sifatini oshiradi.

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qitirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. YA'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

v) Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki, yozma mashqlar va laboratoriya-tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim.

g) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallari boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda o'quv – tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan deb hisoblash qabul qilingan. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim.

2.7. Dars, uning turlari va tuzilishi, darsga bo'lgan talablar

Ma'lumki, dars jarayoni - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. o'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.

5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

7. Darsda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilar:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi (ma’ruza).
2. o‘tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takrorlash – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo‘llanishi). Har bir dars turining ma’lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o‘qituvchining o‘quv materialini to‘g‘ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o‘zlashtirishini nazorat qilib borishiga yordam beradi. Demak, dars boshdan – oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (savol-javob), yangi bilimlar ustida mashq o‘tkazish (masala va misollar yechdirish, grafik ishlari olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi-tushuntirish, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish va h. k) kabi boshqa elementlarning bo‘lishi ham mumkin.

Dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo‘lavermaydi. U o‘qitish usuli bilan bog‘langandagina dars tuzilishini tashkil qiladi. Darsning tuzilishi qo‘yilgan maqsadlarga, o‘rganilayotgan materialning mazmuniga, ta’limning darsda qo‘llanadigan metodlari va usullariga, o‘quvchilarning tayyorgarlik va kamolat darajasiga, darsning o‘quv jarayonidagi o‘rniga bog‘liqdir.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o‘zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turining tuzilishi:

uy vazifalarini so‘rash, tekshirib ko‘rish;

yangi materiallarni bayon qilish;

yangi materiallarni mustahkamlash;

uy vazifalarini topshirishni o‘z ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini ko‘rish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yo‘li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining birinchi qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o‘qituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma’ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining uchinchi qismi, uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishini to‘rtinchi qismi, darsning to‘rtinchi bosqichidir. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan dars turlarining hammasi o‘z tuzilishiga ega bo‘lganidek, ma’lum bosqichlarga ham ajraladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma’lum bir qismi yoki yirik mavzu o‘tib bo‘lganidan keyin o‘tkaziladi. Bunda o‘tilgan materiallarni takrorlash –

qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzularni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

Kasb-hunar kollejlarda o'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni tashkil eta bilish xamda o'tkazish va hakoza. Bularning barchasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z soxasini mukammal bilishni, bolalarni sevishni talab etadi.

Xullas, kasb-hunar kollejlarda o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

2.8. O'qitish metodini tanlash va asoslash

Ta'lim metodlari

Ta'lim usuli-o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zaro aloqalar

ni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul kilish, anglash, esda saklash va amalda kullay olishni nazarda tutadi. Demak, o'qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni, usullarni o'z ichiga oladi. Dars jarayonida o'tiladigan mavzuning xarakteri, mazmuniga qarab, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati turlicha yo'nalishda bo'lishi mumkin. O'qitish usullarini tanlash, birinchidan darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq

O'qitish usullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli usullarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bulmaydi. Usullar bilimlarni uzatish va qabul kilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, kurgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchi larning bilim faoliyatiga munosib ravishda kuyidagi usullar: tushuntirish-illyustrativ (informatsion retseptiv), produktiv (maxsuldor), muammoli bayon, xususiy kidirish yoki evristik xamda yarim tadkikot uslublari kullanilishi mumkin.

Ta'limning og'zaki usullariga: xikoya, ma'ruza, suxbat va boshqalar kiradi. Bu usullarni kullashda o'qituvchi (pedagog)suz vositasida o'quv materialini bayon kiladi, tushuntiradi, o'quvchi (talaba)lar esa tinglash, eslab kolish orqali uni faol qabul kiladilar.

Xikoya. Ushbu usulda o'quvchi (talaba)larga beriladigan bilim mazmunini ogzaki bayon kilish kuzda tutiladi. Xikoyaning bir necha turi mavjud: xikoya-muqaddima, xikoya-bayon, xikoya-xulosa. Xikoya usulini qo'llashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Bular: dikqatni faollashtirish, bayon kilish, takkoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash qabi mantikiy tadbirlardir. Xikoya samaradorligining shartlari: rejani kunt bilan uylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash,

misol va kurgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

Suhbat usuli atroflicha uylangan savollar yordamida o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi (talaba)larning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va konuniyatlarni uzlashtirishga olib keladi. Suhbat usulini kullanishda savollarni kuyish (asosiy, kushimcha, yulovchi va x.k.), o'quvchi (talaba)larning javob va muloxazalarini muxokama kilish, suxbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan joydalaniladi. Savollar yaxshi qabul kilinishi uchun yetarlicha xajmdor bulishi lozim.

Ta'limning kurgazmali usulini shartli ravishda ikki katta guruxga bulish mumkin; kurgazmali va namoyish kilish usullari.

Kurgazmali usuli, o'quvchi (talaba)larga namoyish etiladigan kullanmalar-xarita, plakati, doskadagi chizma va rasmlar, alomalarning surati va boshqalarni kursatishni kuzda tutadi.

Namoyish kilish usuli, odatda, kurulma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish kilish bilan boglik. Namoyish kilish usuliga, shuningdek, diafilm, kinofilm kursatishni xam kiritishgan. Kurgazmali usullarni kullashda kuyidagi usullardan foydalaniladi; kursatish, yaxshi kurinishni ta'minlash, utkazilgan kursatuv, namoyish va xokazolar natijalarini muxokama kilish. O'qitish amaliyotiga shaffof plyonkada tayyorlangan rasm, chizmalar sinfni korongulashtirmasdan kursatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va kompyuterlar kirib keldi.

O'quv kinosini kullash usuli ta'lim amaliyotida odatdagi xodisa bulib koldi.

O'quv jarayonida filmlardan foydalanishga tayyorlanishda o'qituvchi (pedagog) uni oldindan kurishi, namoyish kilish davomida o'quvchi (talaba)lar oldiga kuyiladigan asosiy savollarni tuzishi, tegishli laxzasida kursatiladigan parchalarni, savollarini tuzishi, aloxida parchalarning ajratishi lozim. Nixoyat, film buyicha yakuniy suxbat rejasini belgilashi kerak. Shunday kilib, suz va kurgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bular edi, chunki ta'lim vazifasining uziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud kurgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek o'quvchi (talaba)lar tayyorgarligi darajasidan kelib chikib, xar bir konkret xolatda ularning eng okilona kushiluvi tanlanadi.

Amaliy uslublar ta'lim-tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini qamrab oladi. Amalda kuyidagi usullar kullaniladi: vazifa (maksad)ni kuyish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, taxlil kilish, kamchiliklar sababini aniklash, maksadga tulik erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish. Amaliy usullar ta'limni suz orqali ifodalash va uni kurgazmali uslublar bilan mustaxkamlash jarayoni bilan chambarchas bogliklikda kullaniladi. Ogzaki tushuntirish va kurgazmani kursatish, odatda, mashkni bajarish jarayonining uzi bilan bir vaktida olib boriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish. Agar ta'lim-tarbiya jarayonlari o'quvchi (talaba)larda faol xarakat, bilim va kunikmalar orttirish ishtiyokini uygotsagina, bu jarayon samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

O'quv faoliyatini bunday tashkil kilish uchun uning barcha usullari-ogzaki, kurgazmali, amaliy, reproduktiv, kidiruv, induktiv xamda deduktiv, shuningdek mustakil ish usullaridan foydalaniladi. Bu jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni,

shakli va amalga oshirish usullariga bulgan munosabatda ijobiy xisssiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muximdir. Shuning uchun xam bunday xolatda diqqat, eslab kolish, anglash jarayonlariga o'quvchi (talaba) larning chukur ichki kechinmalari kushiladiki, bu jarayonni kizgin kechadigan kiladi va maksadga erishish ma'nosida ancha samarali buladi.

O'quv faoliyatiga kizikishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli ragbatlantiruvchi ta'sir kursatishi uchun ta'lim prinsiplarining qator talablariga javob berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunining ragbatlantiruvchi ta'sirini oshirishdagi ayrim maxsus usullar xam mavjuddir. Ta'limning ragbatlantirish va asoslash usullariga bilish baxsi xam kiradi. Chunki o'quv baxsi o'qishga kizikishni ragbatlantiruvchi usul rolini uynaydi.

Demak, ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz.

2.9. An'anaviy va noan'anaviy o'qitish metodlari

o'qitishning samarali borishi, o'quvchi-talabalarning har bir fanni chuqur o'zlashtirib olishlari, shuningdek ular bilimlarni ongli va mukammal egallashlari uchun hamda yoshlarda mustaqil va ijodiy faoliyat-fikrlarining rivojlanishiga bevosita o'qituvchining ta'lim usullaridan keng va mohirona foydalana olishiga bog'liqdir.

Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan. Ta'lim jarayonida ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi. o'qitish usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati tug'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan.

Ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishida, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o'qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o'quvchi-talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir.

Darsning an'anaviy metodlari (usullari) quyidagilar:

1. Ta'limning og'zaki metodlari.
2. Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
3. Ta'limning ommaviy metodlari.
4. Ta'limning mantiqiy metodlari.
5. Ta'limning mustaqil ishlash metodlari.
6. Ta'limning nazorat va o'z-o'zini nazorat turlari farqlanadi.

Ta'limning og'zaki metodlari yordamida o'quvchilar ifodali nutqqa, ma'noli va mazmunli gapirishga, suhbatdoshini tinglashga o'rganadilar. Suhbat jarayonida o'quvchilardan tasavvur-obrazlar shakllantiriladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi vaziyatga qarab dars mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi. Rejalashtirilgan savollarni olib tashlaydi yoki yangi savollar kiritadi. Savollar o'quvchilar uchun og'ir yoki yangil bo'lmasliklari kerak. Og'zaki metodning boshqa metodlardan afzallik tomoni shundaki, o'qituvchining xisssiy nutqi o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi.

Ta'limning ko'rgazmali metodlari keyingi yillarda dars jarayonida asosiy o'rinni egallay boshladi. Yangi texnika va kompyuterlarni maktablarda paydo bo'lishi va undan darsda foydalanish dars samaradorligini keskin oshiradi. Ayniqsa, zamonaviy kompyuterlar, proyektor, audiovizual vositalar, kadaskop tipidagi o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish o'quv jarayonini yanada qiziqarliligini oshiradi.

Noan'anaviy darslar. Hozirda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida kengroq joriy etilishi zamirida o'quvchi-talabaga berilishi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar ko'lami o'qitish usullari va shakllarining doirasini kengashtirish zarurligini taqozo etmoqda. O'rta va oliy maktablarda dars berishning noan'anaviy metodlariga quyidagilar kiradi: Dars-ma'ruza, dars-seminar, dars-munozara, dars-konferensiya, dars-ekskursiya, dars-musobaqa (konkurs darslari) mustaqil ishlar darslari va boshqalar mavjud. Shularning har biri haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Dars-ma'ruza. O'rta maktabda dars-ma'ruza yuqori sinflarda qo'llanilib, fanning asosiy g'oya va muammolarni ochib berishda yuqoridagi metoddan foydalaniladi. Ta'lim maktablarida ma'ruza-darslari savol-javoblar, ko'rgazmali va boshqa metodlar bilan qo'shilgan holda o'tkaziladi. Masalan: 5-10 minutlik ma'ruzadan so'ng (ya'ni nazariy bilimlar berilgandan keyin), o'quvchilar ga texnik vositalar yordamida berilgan bilimlar amalda ko'rsatiladi. Shuningdek, ma'ruzaning bir qismida nazariy ma'lumotlar berilsa, ikkinchi qismini savol-javoblar, munozara va shaklda tashkil etish mumkin.

2. Muammoli-dars. Muammoli-dars o'tish mazmuni suhbat darslaridan unchalik farq qilmaydi. Ammo, o'rta maktabda o'quvchilarni izlanish jarayoniga yo'llashda o'qituvchining faolligi ko'proq talab etiladi. Muammoli dars quyidagi qismlardan iborat bo'lish mumkin:

- Tabiiy, ijtimoiy, texnik, texnogen, agrobiologik hodisalar, jarayonlar o'rtasida ziddiyat, qarama-qarshilik mavjudligi aniqlanadi.

- Har xil hodisa, jarayon va boshqalarning yuzaga kelish sabablari rivojlanishi, kechishi va yakuni haqidagi farazlar ilgari suriladi.

- O'quvchilar (talabalar) bilan birgalikda izlanish natijasida ilgari surilgan farazning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi isbotlanadi.

- Har xil tizimlar, hodisalar, jarayonlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari haqida xulosa chiqariladi va narsa, hodisalarning yangi tomonlari ochiladi.

3. Dalada-dars: Tabiat bilan bog'liq darslarni (biologiya, agrobiologiya, ekologiya va boshqalar) aynan shu mavzu bilan bog'liq joyda, dala, bog', tog'. tajriba maydoni va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Masalan: ayrim darslarni ochiq havoda, ayrim tabiiy narsalarni: o'simliklar, hayvonlar, parrandalarni namoyish qilish orqali jonli tarzda o'tish mumkin.

4. Dars-drama: AQShlik olim Moreno 1934 yilda oila, shaxsiy va ish faoliyatida yuz beradigan nizoli vaziyatlardan chiqish, psixologik vaziyatlar yechimini topishda dramatik teatr tajribasidan foydalanish mumkinligini qator tadqiqotlar bilan isbotladi. Bu metod asta-sekinlik bilan oliy va o'rta ta'lim tizimiga kirib kela boshladi. Adabiyot, oila psixologiyasi, ma'naviyat va boshqa hamma fanlardan (yoki fanlar tarixidan) dars-dramalarni tashkil etish mumkin. Ammo, dars-dramaning asosiy maqsadi, o'quvchilar orasida hamjihatlik, jipslik, do'stlik his-tuyg'ularini

shakllantirish, o'qituvchi-o'quvchi orasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'quvchi (talabani) shaxsiy hayoti, jamoadagi shaxslararo munosabat va muloqotda ijobiy psixologik muhitni tashkil etishga mo'ljallangandir.

5. Dars-munozara. Bunday darslarni tashkil etishdan oldin munozara mavzusi, yo'nalishi o'quvchilarga e'lon qilinadi. Shu sohada o'qish zarur bo'lgan ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan ishlash haqida maslahat beriladi. Dars jarayonida uyatchang, kamgap, sust o'quvchilarni doimo savollar berish, ularni fikrini so'rash bilan faollashtirilib turiladi.

6. Dars-sayohat: Dars-sayohat oldindan tuzilgan reja asosida o'tkaziladi va bu darsga katta tayyorgarlik ishlari talab qilinadi.

Bordi-yu o'qituvchi «O'zbekistonning-o'rmonlari» mavzusida sayohat tashkil qilmoqchi bo'lsa u oldin o'quvchilarga o'rmonlar haqida, ulardagi ekologik ahvol, daraxt va o'simliklarning turlari haqida tushunchalar beradi.

Sayohat jarayonida o'quvchilar bilan daraxt va o'simliklar turlarini, tabiat manzaralarini, rasmlarga, video tasmlarga ularning suratlari olinadi. Sayohatning natijasi to'plangan namunalar, olingan rasm va video suratlarni namoyish etish bilan tahlil qilinadi. Bu shaklda olib borilgan darslar o'quvchilarning xotiralarida uzoq muddat muhrlanib qoladi.

2.10. Ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash ilmiy metodik jixatdan ta'minlash, amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baxolashdan iborat bulgan yaxlit tizimda uz ifodasini topadi. Shu sababdan milliy ta'lim – tarbiya tizimini takomillashtirish uchun yangi tipdagi ukuv reja, ukuv dasturlari va ta'lim standartlari yaratildi, lekin uni tula amalga oshirish uchun ta'lim mazmuniga yangi pedagogik natijalar, texnologiyalarni olib kirish, ularni joriy etishning kulay shart–sharoitlarini yaratish lozim.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasini olimlarimiz turlicha ta'riflaydilar va sharxlaydilar.

Masalan: «Pedagogik texnologiya» – bu ukituvchi (tarbiyachi) ning ta'lim–tarbiya vositalari yordamida ukuvchi (talaba)larga muayan sharoitda ta'sir kursatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir. (N.Sayidaxmedov)


Yapon olimi T.Sakamota tomonidan pedagogik texnologiya – bu ukitishning makbulligini ta'minlovchi yul yuriklar tizimi bilan bog'lik bilimlar soxasi ekanligi e'tirof etiladi.

Tanikli rus pedagogi, olima N.F.Talizina texnologiyani «belgilangan ukuv maksadiga erishishning okilona usullarini aniklashdan iborat» deb tushuntiradi. I.Y.Larnerning fikricha, pedagogik texnologiya – «ukuvchilar xarakterlarida aks etgan ukitish natijalari orkali ishonchli, anglab olinadigan va aniklanadigan maksadni ifodalashni takozo etadi.».

Yukorida keltirilgan ta'riflardan kurinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilab olingan boshlang'ich maksad va mazmun asosida ukuv jarayonini loyixalash sifatida talkin etilyapti. Bu bir jixatdan tug'ri, lekin teranrok fikr yuritilsa, uning bir

yoklamaligi yakkol kuzga tashlanadi, chunki bunday yondashuvlarda ukuvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bulib akademik V.P.Bespalko paykadi va uzining yirik asarida «pedagogik texnologiya – bu ukituvchi maxoratiga bog‘lik bulmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan ukuvchi shaxsini shakllantirish loyixasidir», – deb ta’riflaydi. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga karatilgan ta’riflar xilma–xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini kursatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bulgan urinishlarning ma’lum natijasini ifodalaydi. Uzoq yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir – biriga bog‘lik bulmagan xolda urganib kelindi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning umumiy shakli



Olimlarimizning fikricha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika faning aloxida tarmog‘i sifatida yoki fakat ta’lim amaliyotini makbullashtirishga yunaltilgan tizim deb karash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu pedagogika soxasidagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Pedagogik texnologiya bu ukituvchi pedagogik maxoratining yuksak chukkisi bulib, ta’lim-tarbiyani xar kanday murakkab vaziyatda xam anik kullaniladigan usul, vositalarning majmuidir.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta’lim-tarbiyaning maksadini yangi yunalishga burmokda, unda: «utmishdan kolgan mafkuraviy karashlar va sarkitdan tula xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axlokiy talablarga javob beradigan yukori malakali kadrlar tayyorlash» deb belgilanadi. Demak, ta’lim – tarbiyaning maksadi butunlay yangilandi, unga mos xolda mazmunning xam, pedagogik jarayoning xam yangilanishi tabiydir.

Pedagogik texnologiya boshka soxalardagi texnologik tajribalar bilan uzluksiz boyib boradi va an’anaviy ukuv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta’sir

kursatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim – tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bulsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab obyektiv voqealikka aylandi. Axborotlashtirish esa, bu jarayondagi inkilobiy burilishidir. Oddiy til bilan aytganda ta'limda «axborot texnologiyasi – bu ukuvchi – kompyuter» urtasidagi mulokotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy kismi, texnika vositalarining mukammallashtirilgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida kullanila boshlandi. Ta'limni texnologiyalashtirish obyektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy texnik tarakkiyot yunalishi bilan belgilanganishini etirof etgan xolda pedagogik texnologiyaning uziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'lik bulgan vazifalar, olimlarning fikricha quyidagilardan iborat:

1)kup boskichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning moxiiyatini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chikish;

2)zamonaviy sanoat, tibbiyot, iktisodiyot, ekologiya kabi soxa texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabakalashtirilgan yondashuv asosida ularni kullash mezonlarini aniklash;

3)Tegishli boshkaruv organlari (ta'lim markazlari) tomonidan ukuv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbik etilish darajasini nazorat kilish va baxolash;

4)Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat kursatayotgan proffesor – ukituvchilarni malaka oshirish va kayta tayyorlash kurslarida, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari kabi yangi yangi bilimlar tizimi bilan kurollantirishni muntazam tashkil etish;

5)oliy ukuv yurtlari talabalari, ayniksa mutaxassis – pedagog (iktisodchi – pedagog, xukukshunos – pedagog, muxandis – pedagog va boshka) lar uchun 20 soat xajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti buyicha maxsus kurs joriy etish;

6)respublikamizda faoliyat kursatayotgan ijodkor ukituvchilar ish tajribalarini muntazzam urganib taxlil etish, umumlashtirish va ular tomonidan yaratilgan metodik ishlanmalar, pedagogik texnologiya elementlarini yangi pedagogik texnologiya darajasiga kutarish borasidagi ilmiy-nazariy, amaliy ishlarni ruyobga chikarish lozim.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida, jumladan kasb-hunar ta'limida eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bulmaydi. Shuning uchun fikrimizcha, biz bu masalani yangi pedagogik texnologiya asosida amalga oshirishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyani egallash eng avvalo tinimsiz mexnat, xar bir ukituvchining uz ustida ishlashni takozo kiladi. Bu ish dastlab ilg'or pedagogik tajribalarni urganishdan boshlanishi lozim. Ilg'or pedagogik tajribalarni urganish va yoyish ukituvchilar uchun uz kasb maxoratlarini takomillashtirishning eng kulay shaklidir. Ilg'or pedagogik tajriba ukituvchining uz pedagogik faoliyatiga ijodkor va novatorlarga yondashib, ukuvchilarga ta'lim va tarbiya berishning yangi yullarini izlab topishdir.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniklashda ma'lum mezonlarga asoslanishi kerak. Bunda eng muxim ukituvchi uz pedagogik faoliyatida kullaydigan ta'lim – tarbiyaning eng yaxshi shakl, metod va usulidir. Bu mezon ilg'or ukituvchini oddiy ukituvchilardan ajratadigan eng muxim belgidir.

Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yukori natijaga erishish uchun zamin xozirlyadi. Bunda ukuvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi xisobga olinishi zarur. Bundan tashkari ilg'or pedagogik tajribaning kulayligi va tejamligini xisobga olish zarur, chunki yukori natijaga erishishda ukuvchilar va ukituvchilarning kuchini, vaktini tejash, ularni toliktirishdan asrash xam muximdir.

Pedagogik texnologiyani egallashdagi muxim boskich ukituvchilarimizning pedagogik maxoratining muxim tarkibiy kismi xisoblangan pedagogik texnikani egallashdir. Pedagogik texnika ukituvchiga ta'lim – tarbiya faoliyatida zarur bulgan umumiy pedagogik malakalar mazmunini uz ichiga oladi. Pedagogik texnikani egallash ukituvchining eng yaxshi tarbiyaviy ta'sir kursata olishni ta'minlaydi. U ukituvchining kuchini vaktini tejab, ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya pillapoyalari sari intilayotgan ukituvchi uchun keyingi boskich – pedagogik ijod kilishni bilishi xisoblanadi. Pedagogik ijod faoliyat sifatida yangilik yaratish bulib, uzining takrorlanmas ijtimoiy moxiyati bilan ajralib turadi.

Pedagogik ijodning uziga xosligi, takrorlanmasligi shundaki, uning maxsuli sifatida inson shaxsi shakllanadi.

Kasb-hunar kollejlarida pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida, ya'ni didaktik tizimga kuradigan bulsak, didaktik tizimda maksad muxim bulib, unga ergashish ma'lum sharoit va ukuvchi faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato, kamchiliklar, mavxumlikni oldi olinadi va avvaldan ta'lim jarayonini loyixalashtirib va uni birin-ketin vokelikka aylantirish asosida uni takomillashtirish xisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlarida pedagogik texnologiya asosida dars o'tish pedagogik tizimni loyixalashtirish sifatida ta'lim jarayonning yaxlitligini, uning maksad, vazifasi amalga oshirish shakllarini, uslublarini xamda ukuvchilar faoliyatini boshkarish bilimini nazorati va tekshirishning uzviyligini ta'minlaydi. Shunday kilib pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida mazmunli amalga oshirish texnikasidir.

2.11. Masofadan o'qitish texnologiyasi

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keldi. Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, «Zamonvaiy kompyuter» va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan «Internet» ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida 2001 yil 24 may Vazirlar Mahkamasining qarori chiqqan edi. Shu munosabat bilan barcha o'quv muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimidagi yangiliklar, yutuqlarni o'rganish va ularni o'zimizda tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Hozir bu yo'nalishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, qolaversa,

bir qator universitetlarda keng ko‘lamda ilmiy-uslubiy ishlar olib borilmoqda. Bunda «Masofadan o‘qitish» alohida o‘rini tutishini uqtiramiz.

Dunyoda masofaviy ta’lim texnologiyasi hozirda rivojlangan mamlakatlar o‘quv tizimining asosini tashkil etadi. Bu tizim orqali talabalar faqat belgilangan joydagi auditoriyalarda ta’lim olmasdan, ma’lum masofadan turib o‘rganish, muloqot o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu kabi o‘quv tizimi Amerika, Hindiston ochiq universitetlarida keng yo‘lga qo‘yilgan.

Masofadan o‘qitishning turli ko‘rinishlari mavjud:

- lokal kompyuter tarmog‘i orqali;
- global kompyuter tarmog‘i orqali;
- maxsus kabel televideniya orqali;
- har xil kompakt disklar, kassetalar orqali foydalanish turlari.

Masofadan o‘qitishning ustun tomonlari quyidagilardir:

- o‘qituvchi va talaba vaqtdan yutadi, talabani zamonaviy texnologiyalarga yaqinlashtiradi;

- har tomonlama tejamkorlikka ega va albatta asosiysi o‘qitishda, masofa tanlamaydi;

- talabalarning o‘rganishi uchun qulay, oson va sodda hamda qayta o‘zlashtirish, takrorlash, vaqtga moslash imkoniyati mavjud;

- keyinchalik ish joyida zamonaviy texnologiyalarda tadbiq etish uchun mos;

-o‘quv materialini zamon talabiga binoan tez va doimiy o‘zgartirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga kelajak uchun muammo bo‘lmagan kamchiliklari ham mavjud;

- albatta foydalanishda zarur kompyuter va texnika qurollari mavjud bo‘lishi;

- kerakli texnologiyalardan foydalanishda yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lish;

- texnik ko‘rsatkichlarga tobeligi.

Masofaviy ta’limning tarkibiy qismlari quyidagilar: o‘qituvchi, o‘quvchi, kommunikatsiya. Masofadan o‘qitishni naafaqat ta’lim sohasida, balki kundalik turmushimizning barcha sohalarida ham qo‘llash mumkin va yaxshi natijalar beradi:

- bank va moliya sohasida – turli ma’lumot olish, almashish;

- huquqni muhofaza qilish organlarida – tezda ma’lumot almashish;

- savdo – sotiq sohalarida, bog‘cha – yaslilarda qo‘llash;

- transport tizimida foydalanish, harbiy sohalarda qo‘llash;

- kutubxona tizimida foydalanish;

- dam olishda va boshqa sohalarda foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Hozirda masofadan o‘qitishning bir necha modellari ishlab chiqilgan qo‘llanmalarni ularda joylashtirish va ulardan foydalanishni tashkil qilish bo‘lsa, ikkinchisi har xil elektron qo‘llanmalarni tayyorlash va ularni SD lar orqali foydalanishni tashkil qilish hisoblanadi.

Elektron pochta (E-mail)

Elektron pochta yoki YE - mail Internetdan foydalanuvchilarning ko‘p qismida mavjud bo‘lib, Internetning asosini tashkil etadi. Butun dunyo bo‘yicha elektron pochta va YE - maildan har kuni 20 million ki-shi foydalanadi. Internetdan foydalanish uchun beriladigan rux-satnomada elektron pochta manzili va parollari keltirilgan bo‘ladi. Elektron pochta orqali matnlarni, fayllarni grafikani va

multimediya fayllarni, boshqa bir foydalanuvchiga uzatish imkoniyati mavjud. Birinchi masofadan o'qitish tizimlari shu tizimga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, faqat ma'lu-motlarni uzatish yoki qabul qilish bilan chegaralangan. Ting-lovchi ma'ruza va topshiriqlarni qabul qilib olib, o'rganadi va topshiriqlar natijasini yana elektron pochta orqali o'qi-tuvchi manziliga jo'natadi. Bu holat butun kurs davomida bir necha bor takrorlanadi. Bugungi kunda to'liqligicha ye-mailga asoslangan kurslar mavjud emas. Lekin barcha masofadan o'qitish kurslarida qisman elektron pochta xizmatidan foydalanila-di. Elektron pochta xizmatidan asosan kursga ro'yxatga olish va maxsus kirish parollarini jo'natish uchun foydalanil-moqda. Elektron pochtaga turli kompyuterlardan kirish imko-niyati mavjud bo'lib, internetga kirish logini va paroli ta-lab qilinadi. Quyida The Bat elektron pochta dasturi haqida ma'lumot beramiz.

quyida Rossiya va O'zbekistonda amalga oshiralayotgan masofaviy ta'lim kurslari, Internet resurslari manzillaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Yevgeniya Semenovna Polat, doktor pedagogicheskix nauk, professor

2.12. Ko'rgazmali qurollar va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish.

O'qitish jarayonida ko'rgazmali usullardan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarni Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ko'rsatmalilikni ta'limning asosiy vositasi deb ko'rsatadi. Darsda buyum va narsalarning asli, tasviri, texnik vositalar, tasviriy-ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'tilsa, ya'ni mavzu shu asosda bayon etilsa dars to'g'ri tashkil qilinadi va samarali yakunlanadi. o'quv materialining ko'rsatmali bo'lishi yoshlarni o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. o'qitishda namoyish etish usulidan foydalanish materiallarning xarakteriga – mazmuni, shakli va hajmiga bog'liqdir. Ko'rgazmali materiallar xarakter e'tiboriga ko'ra ikki turda bo'ladi:

1. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

2. Tasviriy-ko'rgazmali materiallar: buyum, narsa va hodisalarning tasvirini ifodalovchi materiallar: rasm, surat, diafilm, kinofilm, jo'g'rofiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va h.k.

Tasviriy - ko'rgazmali materiallar – illyustratsiya materiallari deb ham ataladi. Ta'lim jarayonida tasviriy – illyustratsiya materiallaridan foydalanish keng qo'llaniladi.

O'qitishning texnik vositalari o'qish vositalari mazmunini o'quvchilarga yetkazib beruvchi o'qitish qurolidir. O'qitishning texnik vositalari o'qitish vositalari bilan birgalikda ishlatiladi. Agar o'qitish vositalari bo'lmasa ko'p sonli o'qitishning texnik vositalaridan hech qanday naf bo'lmaydi, aksincha, o'qitishning texnik vositalarisiz ular uchun mo'ljallangan o'qitish vositalarini ham ishlatib bo'lmaydi.

O'qitish vositalari (hajmli tabiiy ob'ektlar, tog' jinslari, qazilma boylik namunalari, o'simliklar, mashinalar, detallar, materiallar, ob'ektlar tasviri, bosma

o'qitish vositalari va hokazo) ning mazmunini o'quvchilarga yetkazib berish katta qulayliklar yaratib, uzatilayotgan materialni o'quvchilar tomonidan tez idrok qilishlarida zamin yaratadi. Bundan tashqari o'tilgan material o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishida yordam beradi. O'qitishning texnik vositalari o'qituvchining ta'lim jarayonidagi ish unumdorligini oshirib, ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi.

O'qitish texnik vositalari o'qitish jarayonida tutgan o'rniga qarab informatsion, nazorat va dasturlashgan texnik vositalariga sinflanadi.

Informatsion texnik vositalar axborotni lo'nda, tushunarli, ortiqcha, ikkinchi darajali axborotlarsiz o'quvchilarga yetkazib berishi shart. Shu bilan birgalikda ko'rish maydonining yetarliligini, tasvirning yaxshi va aniq ko'rinishini ta'minlashi lozim. Shu bois informatsion texnik vositalari ovoz beruvchi (audio), tasvir beruvchi (video) va han tasvir ham ovoz beruvchi (audiovideo) vositalariga bo'linadi.

Ovoz beruvchi o'qitishning texnik vositalari asosan til o'rganishda keng qo'llaniladi. Ular jumlasiga ovoz yozuvchi va ovoz eshittiruvchi apparatlar: proigrevatellar, radiolalar, magnitofonlar kiradi. Ovoz grammplastinka, magnitofon plyonkasiga, kinoplyonkaga yozib olinadi. Ovoz eshittirish elektromexanik, magnit, fotooptik usulida maxsus apparaturalar yordamida amalga oshiriladi.

Tasviriy informatsiya beruvchi texnik vositalar o'quv materiallarini chuqurroq o'rganishga, ko'proq ma'lumot berishga va idrok qilish vaqtini qisqartirishga yordam beradi. Tasvir beruvchi texnik vositalar o'z navbatida ovozsiz statik va ovozsiz dinamik vositalariga bo'linadi. Ular jumlasiga diaproektorlar, epiproektorlar, grafoproektorlar va ovozsiz kino kabilar kiradi.

ИНТЕРНЕТ ЯНГИЛИКЛАРИ ОТ ОСОЗНАНИЯ ПАРАДИГМЫ - К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

А.А. Баранов

<http://www.xdlsoft.com/14.html> (12.06.2012 г.)

В современную эпоху сфера образования является основой стратегии развития любой страны. Будучи наиболее динамичным фактором воздействия на социальные процессы, образование непосредственно влияет на систему ценностей человека (и общества в целом), образ жизни, усвоение знаний и умений. В нашей стране, где в сфере образования трудятся и учатся 37 миллионов человек: профессорско-преподавательский состав, научные работники, педагоги, учащиеся, студенты, обслуживающий персонал, - все свои в работе этого огромного механизма затрагивают интересы не только обучаемых и преподавателей, но и их семьи, (минимум 100 млн. человек). Реформирование российской системы образования обусловлено, прежде всего, необходимостью формирования и развития интеллектуального и духовного потенциала нации. Образование - это ключ к обеспечению конкурентоспособности в мире XXI века.

В Федеральной программе развития образования (1999 г.) определена ее главная цель - «развитие системы образования в интересах формирования творческой личности и как одного из факторов экономического и социального прогресса общества на основе провозглашенного Российской Федерацией приоритета образования». В качестве одной из важнейших задач, решаемых в процессе достижения целей образования, - «усиление воспитательной функции образования, направленной на формирование гражданственности, трудолюбия, нравственности, уважения к правам и свободам человека, любви к Родине, семье, окружающей природе»[1]. Очевидно, что эти установки Программы направлены на преодоление технократической ориентации в образовании с ее забвением гуманистических целей и идеалов, ведущих по существу к дегуманизации общественной жизни. Образование призвано проложить дорогу

новой социальной, экономической, правовой и политической культуре, сделать общество открытым и многомерным, динамичным и чутким к традициям.

Современная социально-образовательная ситуация в России характеризуется обострением многих образовательных проблем, связанных с сегодняшним этапом развития нашего общества. В условиях открытого общества и развивающихся рыночных отношений, стремительных перемен в жизни всех россиян возникла потребность в специалистах, адекватно отражающих в своем сознании и в своих навыках работы все изменения в нашей динамичной жизни.

В современных условиях крайне актуальной становится задача нового прочтения смыслов и задач образовательной деятельности, поиск новых целевых установок, необходимость более полного учета связей между жизнью общества в самом широком смысле и жизнью системы образования, переосмысления таких фундаментальных категорий, какими являются «образование», «культура», «ценности», «императивы». В сущности речь идет о прочтении задач образования в контексте новых реалий. Как неоднократно подчеркивал министр общего и профессионального образования Российской Федерации В.М.Филлипов, «...необходимо обеспечить сохранение сложившейся, во многом уникальной даже по мировым меркам, российской системы образования, и при этом стимулировать такие ее изменения, которые позволили бы системе лучше адаптироваться к современным условиям и обеспечить перспективы развития России в XXI веке» [2]. Система образования должна вписаться в ситуацию перехода к рыночной экономике. Это означает, что главным в ней становится подготовка субъекта рыночных отношений. Вопрос стоит отныне не просто о необходимости организационно-структурных изменений в системе образования, а о глубоких сдвигах в содержании ее деятельности, о решительном повышении ее социальной эффективности.

Введенное американским ученым Т.Куном в методологию науки принципиально новое, фундаментальное понятие «парадигма» получило

широкое распространение. В этом термине фиксируется существование особого способа организации знания, набор предписаний, задающих характер видения мира, общепринятые образцы решения конкретных проблем. Парадигмальное знание выступает как бы предварительным условием и предпосылкой построения и обоснования различных теорий. По словам Т.Куна, парадигму составляют «...признание всеми научных достижений, которые в течение определенного времени дают модель постановки проблем и их решений научному сообществу»; он рассматривает парадигму как «источник методов, проблемных ситуаций и стандартов решения», причем принимаемый стандарт «отличает действительное научное решение от чисто метафизических спекуляций, игры слов или математических забав» [3]. Традиционная образовательная парадигма содействовала развитию рационализма, веры в линейный прогресс и абсолютную истинность науки. Важно отметить, что наука в процессе своей эволюции не утратила функции свободного самоорганизующегося духовного производства и, видимо, эта функция науки будет существенно расширяться по мере возрастания доступа к научной информации. Справедливо утверждается, что наука представляет собой один из немногих видов человеческой деятельности, если не единственный, в котором ошибки подвергаются критике и со временем довольно часто исправляются. Отнюдь не однозначное отношение к науке в последнее время, вызванное тем, что научное знание без четко просчитанных гуманистических аспектов может нести не только благо, должно смениться пониманием того, что опасной наука становится не сама по себе, а «вопреки ее внутренним целям». Критика науки не должна приводить к отказу от идеала научности образования. Задача, таким образом, сводится к тому, что необходимо найти новое содержание этого идеала и новые формы его реализации. Здесь и выдвигаются на первый план проблемы развития междисциплинарных связей, формирование системы обобщенных понятий - от частнонаучных картин мира к человеку и интегративной картине мира. Речь идет о качественно новых целях содержательного процесса, о новых принципах отбора и систематизации знаний, выводящих на системный уровень

познания действительности с использованием механизмов самоорганизации и саморазвития явлений и процессов.

Вопросы методологии в обновлении содержания учебно-воспитательного процесса имеют принципиальное значение. Не случайно одним из основополагающих принципов конструирования 12-летнего общего образования в обсуждающейся Концепции структуры и содержания общего среднего образования (в 12-летней школе) названа методологическая составляющая в научном знании: теории, законы, принципы, модели, понятия, величины, научные факты; система способов исследования, применяемых в базовых науках, учение о методах познания и преобразования мира. Ныне, чтобы успеть за днем бегущим, нужно в непривычном свете увидеть иерархию тех знаний, которые входят в состав образования, предлагаемого как багаж человеку, вступающему в самостоятельную жизнь; Главное - выделить знания, нужные всегда и везде, и навыки, столь же универсальные и полезные. В противном случае, багаж может оказаться ничемным грузом. Например, сегодня чрезвычайно важна грамотность в широком смысле этого слова, а литературная она или компьютерная - вопрос скорее второстепенный.

Чтобы отвечать на вызов стремительного развития науки и техники, подъем интеллектуальной экономики, нужны новаторство, творчество. Ключевой фактор творчества - квалифицированные кадры, а их рост может быть обеспечен только за счет образования. Не случайно одним из основных принципов инновационного образования является подготовка к творчеству. В педагогической деятельности тесно переплетены две ее стороны - познавательная (гносеологическая) и преобразовательная (социальная), оказывающие решающее воздействие на своеобразие формирования личности и учителя, и учащегося. Творчество - сущность и основа учебно-воспитательной деятельности любого образовательного учебного заведения - есть, вместе с тем, и специфический способ существования личности педагога. Для его полноценного профессионального становления важен коммуникативный аспект

его деятельности, общение как условие взаимообогащения и взаимовоспитания. Педагогическая деятельность формирует свою специфическую профессиональную культуру, этику труда и поведение педагога, свои нравственные ценности.

Процесс трансформации общества по-новому ставит и проблему взаимоотношения Министерства образования Саратовской области с образовательными субъектами. Изучение названной проблемы вызвано потребностью получения социальной информации для оценки места и роли каждого образовательного субъекта в условиях динамичного обновления региональной образовательной системы, эволюция которой, как и на общегосударственном уровне, долгие годы характеризовалась преобладанием традиций в ущерб инновациям; целевым изменением в функционировании системы, в широком смысле понимаемом как качественные и количественные изменения в ее различных элементах. Выдвинутую несколько лет назад Российской Академией наук систему идей под общим названием «инновационное образование» поддерживают и развивают уже десятки тысяч ее сторонников.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Федеральная программа развития образования // Народное образование. 1999. № 9. С.37.
2. Образование в документах. Информационный бюллетень. 1998. XI. С.7.
3. Кун Т. Структура научных революций. М., 1975. С.11, 136, 137.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar majmuasi.

3.1. Fermer xo'jaliklarini tashkiliy iqtisodiy asoslari

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tadbirkorlik shakllaridan biri fermer xo'jaliklaridir. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 avgustda qabul qilingan «Fermer xujaligi tukgrisida»gi konunning 1-bandida “Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan xolda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqorishi bilan shugullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs xuquqlariga ega mustaqil xo'jalik yuritish sub'ektidir”, - deb belgilab berilgan.

Fermer xo'jaligining vujudga kelishi va shakllanishida uning tashkiliy-iqtisodiy asoslari muxim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, fermer xo'jaligi tashkiliy-xuquqiy jihatdan:

- xo'jalik a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan;
- o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan xolda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shugullanuvchi;
- o'z nomi o'yib yozilgan xamda gerb tasviri tushirilgan muxrga xamda shtampga ega, yuridik shaxs maqomidagi;
- bank muassasalarida xisob-kitob va boshqa xisob varaqalar ochadigan;
- tegishli davlat organlarida ruyxatdan o'tgan;
- boshqa korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar xamda muassasalar bilan o'zaro teng xuquqli munosabatlarga kirishuvchi mustaqil xo'jalik yuritish sub'ekti xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “qishloq xo'jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muxim yo'nalishlari to'grisida”gi farmonida fermer xo'jaliklarini shakllantirishning quyidagi prinsipial qoidalari belgilab berilgan:

- dastlab fermer xo'jaliklari qoida tariqasida, tugatiladigan, zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etildi;
- fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan xususiy korxonalar shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperasiyalarga birlashish xuquqi bilan barpo qilinadi;
- er maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatli asosda, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish xuquqi bilan ijaraga foydalanish uchun beriladi;
- fermer xo'jaliklariga beriladigan er maydonlari shirkat xo'jaliklarining balansidan chiqariladi;

–etishtiriladigan qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etkazib berish xamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni olish uchun shartnomalarni faqat fermer xo'jaliklarining o'zlari tayyorlov, qayta ishlash xamda xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to'gridan-to'gri tuzadilar.

1. Fermer xo'jaliklarini tuzishning quyidagi shakllari mavjud:

2. Maxsus respublika fondidagi, mexnat resurslari etarli bo'lmagan va yangi sugoriladigan mavzelardagi erlar xamda zaxira erlarda maxsus davlat er fondini shakllantirish orqali fermer xo'jaliklarini tuzish.

3. qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning erlarida a'zolarining ixtiyoriylik asosida kooperativ (shirkat)dan chiqib, fermer xo'jaligi tuzish uchun bergan arizasiga binoan umumiy majlisning qarori bilan ajratiladigan erlarda fermer xo'jaliklari tuzish.

4. Surunkasiga zarar ko'rib kelayotgan istiqbolsiz yoki past rentabelli xo'jaliklarni xokimliklar tavsiyasiga ko'ra, Vazirlar Maxkamasining qarorlari asosida qayta tashkil etib, to'ligicha fermer xo'jaliklariga (uyushmaga a'zo bo'lgan xolda) aylantirish.

5. Maxsus tuzilgan er fondi negizida fermer xo'jaliklarini tuzish isloxotlarning dastlabki bosqichlarida ko'proq axamiyatga ega bo'lgan. Chunki, barcha ekin maydonlari yirik qishloq xo'jaligi korxonalarining balansida bo'lgan xamda fermer xo'jaliklari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini respublika miqyosida ko'rsatib berishga ulgurmagan ilk bosqichlarda ularni shakllantirish asosan xukumatning topshirigiga muvofiq maxsus er fondi tuzish orqali amalga oshirilgan. Xususan, Vazirlar Maxkamasining 1991 yil 30 dekabrda 315-sonli qarori bilan 200 ming gektar, 1994 yil 23 fevralda 87-sonli qaror bilan 76921 gektar, 88-sonli qarori bilan 100 ming gektar, jami 376921 gektar er fondi ajratilgan va 17325 ta fermer xo'jaliklari tashkil etilgan.

6. Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)dan kooperativ (shirkat) a'zolarining mustaqil fermer xo'jaligi tuzish maqsadida chiqishi tartibi "Fermer xo'jaligi to'g'risi"da qonunning 11-bandida belgilab berilgan

7. Qonunga muvofiq qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) tarkibidan chiqish va mustaqil fermer xo'jaligi yuritish istagida bo'lgan shaxslar kooperativ (shirkat) ustaviga binoan o'zlariga tegishli mulkiy pay qiymatini hamda daromad (foyda)dan miqdori kooperativ (shirkat) a'zosining mehnat ishtirokini inobatga olgan holda aniqlanadigan ulushni olishga haqlidir.

8. Bunda fermer xo'jaligi mutlaqo ixtiyoriylik asosida, uning a'zolarining qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati) boshqaruviga va tuman hokimiyatiga yozgan murojaatiga asosan tashkil etiladi.

9. Fermer xo'jaligini yuritish istagini bildirgan fuqarolar birinchi navbatda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 10-bandidi belgilab berilgan tartibda uzoq muddatli ijaraga er uchastkasi ajratishni so'rab qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi nomiga ariza beradilar. Bunda arizalarni berish va ko'rib chiqish qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib olish tugagan vaqtga to'gri kelishi maqsadga muvofiqdir.

10. Ariza shirkat xo'jaligi boshqaruvi tomonidan o'n kun muddatda ko'rib chiqilib, xo'jalikning umumiy majlisiga taqdim etiladi. Umumiy majlis tegishli qaror

qabul qiladi. Fuqaroning arizasi va umumiy majlis qarori fermer xo'jaligining biznes-rejasi bilan birga tuman xokimiga yuboriladi. Ushbu xujjatlar tuman xokimi tomonidan besh kun muddatda er uchastikalarini berish masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga xulosa berish uchun topshiriladi.

11. Komissiya o'n besh kun muddatda xujjatlar bilan tanishib chiqadi va bo'lajak fermer bilan suxbat o'tkazadi xamda ijaraga er berish muvofiqligi yoki muvofiq emasligi xaqida xulosasini tayyorlaydi. Xulosani yuqoridagi xujjatlar bilan birga tuman xokimiga taqdim etadi.

12. Tuman xokimi o'n besh kun muddatda taqdim qilingan xujjatlarni ko'rib chiqib, fermer xo'jaligi yuritish uchun fuqaroga er uchastkasi berish to'grisida qaror qabul qiladi.

13. Tuman xokimi qarori qabul qilingandan so'ng o'n kun muddat ichida xokimiyatning er tuzish va erdan foydalanish xizmati bilan fermer xo'jaligi boshligi o'rtasida er ijarasi shartnomasi tayyorlanib, imzolanishi lozim. Shartnoma imzolangandan so'ng o'n kun muddatda tuman bosh er tuzuvchisi va shirkat xo'jaligi vakili fermer uchun ajratilgan erni ko'rsatadi va uch nusxadagi dalolatnoma bilan tasdiqlaydi.

14. Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 20 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'grisida"gi 357- qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, xisobga qo'yish va ruxsat beruvchi xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'grisida Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. Fermer xo'jaligi tuman xokimligida davlat ro'yxatidan o'tadilar. Buning uchun ushbu toifadagi xo'jaliklar tuman xokimligi qoshidagi Inspeksiyaga quyidagi xujjatlarni taqdim etishi lozim:

15. Ariza.

qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yigilishining yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi oliy boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning fermer xo'jaligini tashkil etish to'grisidagi qarori.

Notarial tasdiqlangan Ustavning ikkita asl nusxasi.

Davlat boji yoki ro'yxatdan o'tish to'lovi to'langanligi to'grisida bank to'lov xujjati (eng kam ish haqining besh barobari miqdorida).

Vakolatli shaxar (tuman) xokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jalik nomini tasdiqlovchi xujjat.

Xokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining er uchastkasi berish xaqidagi qarori, tovar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning biznes-rejasi nusxalari.

Muxr va shtampning uch nusxadagi eskizi.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur xujjatlar bo'lajak fermerning o'zi yoki shartnoma asosida tuman xokimligining fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'grisidagi qarori yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'grisidagi qarori ariza beruvchi ariza bergan kundan boshlab 7 (etti) ish kunida, tuman xokimligining fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'grisidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi. Shundan so'ng tuman xokimligi yangi tashkil etilgan fermerni «Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'grisida»gi guvoxnoma va tuman xokimiyati muxri bilan tasdiqlangan «ro'yxatga olingan» belgisiga esa ta'sis xujjatlarini xamda muxr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning uchinchi yo'nalishi surunkali zarar keltirib ishlayotgan va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil etib, to'liq fermer xo'jaliklariga aylantirishdir. Respublikada surunkali zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz va past rentabelli xo'jaliklarni sanasiyalash amaliyotidan voz kechib, ularni bosqichma-bosqich fermer xo'jaliklariga aylantirishga istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmokda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining bir qator qarorlari bilan 1999-2003 yillar oraligida zarar bilan ishlayotgan va past rentabelli 336 ta xo'jalik tugatilib, ularning o'rnida 20 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 476-sonli qarori zarar keltirib ishlayotgan istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida navbatdagi muxim bosqichni boshlab berdi. Ushbu qarorga ko'ra, 2004-2006 yillar mobaynida zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz 1020 ta shirkat xo'jaligini tugatib, bosqichma-bosqich fermer xo'jaliklariga aylantirish ko'zda tutilgan edi.

Konsepsiyada fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari belgilab berilgan:

fermer xo'jaliklarining to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi er resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni ragbatlantiradigan xuquqiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratish;

fermer xo'jaliklarining boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

fermerlarning tadbirkorlik erkinligi va xuquqlarini xar tomonlama muxofaza etish, qonunda ko'rsatilgan xuquqlari buzilishiga va ichki faoliyatiga aralashuvning xar qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;

qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirishni moliyalashtirishning bozor tamoyillariga javob beradigan uslub va shakllarini takomillashtirish;

moliyaviy mablaglardan foydalanishda fermer xo'jaliklarining mustaqilligini, barcha xarajatlarni qishloq xo'jaligi maxsulotlarini sotishdan tushadigan o'z daromadlari xisobiga qoplashni ta'minlaydigan ishonchli tizimni shakllantirish;

tijorat banklari xamda byudjetdan tashqari jamgarmalarning fermerlikni rivojlantirishga yo'naltirayotgan kredit resurslarini ko'paytirishni xar tomonlama ragbatlantirish;

kredit tavakkalchiligini sugurtalovchi institusional tuzilmalarni keng rivojlantirish;

bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari raxbarlari va mutaxassislarini tayyorlash tizimini yaratish;

qishloqda fermer xo'jaliklarining extiyojlariga qarab, barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini jadal rivojlantirish;

fermerlarning barqaror daromad olishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash xamda qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi mutanosiblik, ya'ni "baxolar pariteti"ni saqlab borish;

ilgor texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

maxsulotlarini sotishning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish.

Fermer xo'jaligi o'z mol-mulkiga (erdan tashqari), etishtirgan maxsulotiga xamda oladigan daromadlariga mutlaq egalik xuquqiga ega.

3.2. Fermer xo'jaliklarini optimalashtirishning iqtisodiyot va boshqarishda tutgan o'rni va ahamiyati

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar tufayli iqtisodiyotni boshqarishning markaziy-rejali usuli inkor etildi va uning o'rnida iqtisodiy manfaatlarga asoslangan, iqtisodiy manfaatdorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyotiga o'tildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tashkil etiladi va ularning erkin faoliyat yuritishlariga huquqiy asoslar davlat tomonidan yaratib beriladi.

Agrar sektorda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar tufayli xo'jalik yuritishning yangi shakli bo'lgan fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Fermer xo'jaligining mohiyati va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati to'g'risida Prezidentimiz I, Karimov quyidagi eng muhim fikrni ko'rsatib o'tdilar: “Fermerlik, avvalo erga egalik qilish, erdan foydalanishning zamonaviy usuli bo'lib, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning yangicha amaliy shaklidir”.

Fermer xo'jaliklari erdan ijara usulida foydalanadilar, ijara muddati 50 yilgacha belgilangan bo'lib, ular erdan unumli foydalanish asosida tovar mahsulotlari ishlab chiqaradilar, davlatga va boshqa xo'jalik sub'ektlariga shartnoma asosida mahsulotlarini sotadilar va nihoyat ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini turlariga ixtisoslashib boradilar.

Haqiqatdan, ham erdan samarali foydalanish va unga egalik qilishning yangi shakli bo'lgan fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligi tashkil etish to'g'risidagi Qonun 1998 yilda qabul qilingan edi. Shu qonun fermer xo'jaliklarini tashkil etishga va ularning rivojlanishiga huquqiy asos yaratib berdi va 2004 yil 26 avgustda “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonunga binoan, fermer xo'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'lmagan erlarda va hududlarda tashkil etilishiga, dehqonchilik mahsuloti etishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan er uchastkalarini paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 gektardan, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik ekinlari etishtirish uchun kamida 1 gektardan er berilishi ko'rsatilgan bo'lib, undan o'tish davrining dastlabki bosqichlarida amalga oshirildi.

Iqtisodiyotdagi o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli agrar sektorda tarkibiy o'zgarishlarga o'tilmoqda va ishlab chiqarish modernizatsiya qilinib, ishlab chiqarishda innovatsiyalar qo'llanilishi va amalga oshirish natijasida fermer xo'jaliklari maqbullashtirilmoqda.

Respublikamiz bo'yicha fermer xo'jaliklari er uchastkalarini maqbullashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, moliya - kredit tizimi va boshqa ijobiy tadbirlar amalga oshirilayotgan davrda fermer xo'jaliklari rahbarlarining ilmiy-amaliy bilim saviyalarini yanada oshirish va boyitish, demak, ilg'or iqtisodiy va agrotexnologik yo'nalishdagi innovatsion ishlanmalar hamda tajribalarni fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatiga joriy qilish o'ta muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda har bir hududda aynan bir xil mahsulot etishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari turlicha hosildorlik va daromadga ega bo'lmoqdalar. Bunga asosiy sabab – har bir fermer xo'jaligining rahbari ekinlarni parvarish qilish va agrotexnologik tadbirlarni bajarilishiga o'z bilimi hamda qobiliyati darajasida

yondashishi hisoblanadi, ko'p holatlarda fermer ilg'or va zamonaviy agrotexnologik jarayonlarni joriy qilish, mahsulot hosildorligini oshirish va sifatini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan vositalardan foydalanish to'g'risida ma'lumotga ega emas yoki ular umuman qiziqmaydilar.

Agarda davlat ehtiyoji uchun xarid qilish tizimi belgilanmagan tarmoq -meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, bir hududda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari teng sharoitda er uchastkasi, suv va boshqa moddiy resurslarga ega bo'lishlariga qaramasdan turlicha hosildorlik va daromadga ega bo'lishmoqda. Bu fermer xo'jaliklari orasida ilg'or xo'jaliklar va nisbatan past daromad olayotgan xo'jaliklar kam sonni, o'rta daromadga ega bo'lganlar esa katta salmoqni egallashmoqda.

Demak, har bir qishloq hududlarida, er uchastkalari maqbullashtirilgan, tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi asosiy xo'jalik sub'ektlari – fermer xo'jaliklari rahbarlarining kasbiy, ilmiy-amaliy bilim doiralarini kengaytirish va mustahkamlash, xo'jaliklarda innovasion ishlanmalar, ilg'or agrotexnologik tadbirlar va tajribalarni targ'ib qilish tizimini tubdan takomillashtirish talab etiladi. Bu qisqacha qilib aytganda - turli ma'lumot va qobiliyatga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlarining amaliy va ilmiy saviyasini oshirish, ularni o'z sohalari bo'yicha innovasion ishlanmalar va ilg'or tajribalar bilan tanishtirish, o'z er uchastkalarida sinab ko'rish va pirovard natijalarining iqtisodiy samaradorligini amalda ko'rsatib asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

«Shu bilan birga, - o'tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo'jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan er maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda. Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda»□.

Prezidentimiz o'zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” asarida faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining dastlabki shakllanish bosqichida ularga ajratib berilgan er maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining

o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilganini ko'rsatib, er maydonlarini to'liq inventarizasiyadan o'tkazish, ularning er maydonlarini optimallashtirish zarurligini ko'rsatib berdilar.

«Fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan kichik hajmdagi erlarda samarali xo'jalik yuritib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlarni bu borada olib borilgan ba'zi ilmiy tadqiqot natijalari ham yaqqol tasdiqlaydi. Fermer xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, so'ralganlarning aksariyat qismi tejamkorlikka to'sqinlik qiluvchi sabablardan biri sifatida ajratilgan er maydonlari hajmining samarali xo'jalik yuritish uchun etarli darajada emasligini ko'rsatganlar. Natijada kichik hajmdagi er maydonlariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari faoliyati ishlab chiqarish samaradorligi va tejamkorlik tamoyillariga zid kelmoqda. Jumladan:

- yirik hajmdagi er maydonlariga mo'ljallangan texnika vositalaridan foydalanishdagi muammolar;
- doimiy ishchilardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- ba'zi bir resurs va xizmat turlaridan qonuniy va to'liq asosda foydalanishdan manfaatdor bo'lmaslik;
- to'laqonli faoliyat yuritishga qiziqishning sustligi, tezroq foyda olishga intilishga moyillikning paydo bo'lishi va boshqalar.

So'rovda ishtirok etgan ba'zi bir fermer xo'jaligi rahbarlarining fikricha, kichik hajmdagi erga ega bo'lgan xo'jaliklar uchun tijorat banklaridan kredit yoki asosiy vositalarni lizingga olish muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ba'zi hollarda bank yoki lizing kompaniyalari asosiy vositani lizingga berish uchun xo'jalik er maydonining kamida 40-50 gektar bo'lishini talab etmoqdalar. Chunki bunda kam hajmdagi er maydoniga ega bo'lgan xo'jaliklar o'z faoliyatidan olingan sof daromad hisobiga lizing to'lovlarini to'lashda qiyinchilikka duch keladilar.

Asosiy vositalar lizingi uchun yillik to'lov hajmining tahminiy 2,5 mln. so'mlik miqdorida faqat 33 gektardan ortiq er maydoniga ega xo'jaliklar bunday to'lovni qoplash imkoniga ega. Agar boshqa xarajat va to'lovlarni, kengaytirilgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olinsa, lizingdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan xo'jaliklar kamida 40-50 gektar er maydoniga ega bo'lishi lozimligi namoyon bo'ladi»□.

Shu kabi asoslardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda er maydonlarini to'liq inventarizasiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning er maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamlı, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga

ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 18 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi er uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3512-sonli farmoyishining ijrosini ta'minlash borasida Qashqadaryo viloyatida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Xususan, ijaraga ajratilgan er uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalangan, agrotexnik tadbirlarni bajarilishiga rioya qilmagan, kontraktasiya shartnoma majburiyatlarini bajarmagan, to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan, kreditor qarzdorligi yuqori bo'lgan, yilni zarar bilan yakunlagan jami 1460 ta shunday ixtisosligi bo'yicha

paxta-g'allachilik 1091 ta 87250 ga, sabzavot-polizchilik 18 ta 266 ga, bog'-uzumchilik 265 ta 2587 ga, chorvachilik 63 ta 2934 ga, boshqalar 23 ta 155 ga fermer xo'jaliklarining ijara shartnomasi bekor qilindi va ularning er uchastkalari tuman zaxira er fondiga qfytarildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklariga ajratilgan er maydonlari paxtachilik va g'allachilikda o'rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha, sabzavotchilikda 10 gektardan 24,7 gektargacha, chorvachilikda 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paydi.

Fermer xo'jaliklari optimallashtirilgandan keyin viloyatda 7139 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularga qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun 734,1 ming gektar er maydoni berilgan. Shundan G'uzor tumanida – 52,5 ming gektar, Dehqonobod tumanida – 26,4 ming gektar, Qarshi tumanida - 51,9 ming gektar, Koson tumanida – 92,2 ming gektar, Qamashi tumanida – 78,3 ming gektar, Kitob tumanida – 34,4 ming gektar, Mirishkor tumanida – 89,9 ming gektar, Muborak tumanida – 54 ming gektar, Nishon tumanida - 66,3 ming gektar, Kasbi tumanida - 44,4 ming gektar, Chiroqchi tumanida – 81,4 ming gektar, Shaxrisabz tumanida – 25,5 ming gektar, Yakkabog' tumanida – 36,7 ming gektar ajratib berilgan er maydonlarida qishloq xo'jalik mahsuloti etishtiradilar. Hozirgi kunda fermer xo'jaliklarida 108376 ta xodim mehnat qiladi.

3.3.Fermer xo'jaliklarini optimalashtirish asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari

Fermer xo'jaliklarining er maydonlari kengayishi bilan ularning daromadi oshib bormoqda va fermer xo'jaliklarida zamonaviy texnika va fan-texnologiyalarga bo'lgan talab ko'paymoqda.

Fermer xo'jaliklari er uchastkalarini maqbullashtirish natijasida:

yuqori daromadga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari sonini ko'paymoqda;

er va suv resurslaridan samarali foydalanishni taminlash yo'lga qo'yilmoqda;

agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli bajarilishiga erishish ta'minlanmoqda;

olgan daromadining ko'payishi yoki kredit hisobiga texnika va boshqa vositalarni xarid qilish imkoniyati oshmoqda;

qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan birgalikda xududlarda kasanachilik va boshqa saholarini rivojlantirish asosida yangi doimiy ishchi o'rinlarini tashkil qilinmoqda.

Viloyatda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan fermer xo'jaliklarining 2011-yildagi ulushi 35,5 foizni tashkil etadi. Shundan G'uzor tumanidagi fermer xo'jaliklarining yalpi hududiy ichki mahsulotdagi hissasi – 29,7 foiz, Dehqonobod tumanida – 1,8 foiz, Qarshi tumanida – 38,5 foiz, Koson tumanida – 43,6 foiz, Qamashi tumanida – 31,5 foiz, Kitob tumanida – 32,9 foiz, Mirishkor tumanida – 53,2 foiz, Muborak tumanida – 35,0 foiz, Nishon tumanida – 56,1 foiz, Kasbi tumanida – 47,9 foiz, Chiroqchi tumanida – 16,2 foiz, Shahrisabz tumanida – 27,5 foiz, Yakkabog' tumanida – 40,8 foizga tengdir.

Viloyatda 462420 ta dehqon xo'jaliklari mavjud, ulardan 27813 tasi yuridik shaxs maqomiga egadir. Dehqon xo'jaliklariga 90299 gektar er maydonlari berkitilgan. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan dehqon xo'jaliklarining ulushi 63,4 foizni tashkil etadi.

**Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlar tahlili**

3.1-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	y i l l a r						
			2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
1	Qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi	%	26,3	25,1	21,7	19,4	18,2	17,5	17,1
2	Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning o'sishi	%	105,4	106,7	106,1	104,5	105,7	106,8	106,6
3	O'simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi	%	107,0	106,3	107,2	102,8	105,9	106,6	106,0
4	O'simlikchilik mahsulotlarining ulushi	%	55,6	55,9	55,6	53,5	57,1	59,4	57,8
5	Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi	%	103,6	105,9	104,6	106,7	105,5	107,0	107,6

6	Chorvachilik mahsulotlarining ulushi	%	44,4	44,1	44,4	46,5	42,9	40,6	42,2
7	Qishloq xo'jaligiga kiritilgan investisiyalar	mlrd.. so`m	139,3	165,7	200,7	258,0	388,5	477,7	841,4
8	Qishloq xo'jaligiga kiritilgan investisiyalar ulushi	%	4,4	4,1	3,4	2,7	3,1	3,1	4,6

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ-308-son qaroriga muvofiq shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish maqsadida 22,4 ming nafar fuqaroga 40,0 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Mavjud chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida chet ellardan 39,3 mlrd. so'mga jami 6501 bosh naslli mollar keltirildi, bunda bir bosh naslli molning o'rtacha narxi 3,7 mln. so'mga (2007 yilda 3,6 mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, qishloqdagi mulkdor va tadbirkorlarning ahamiyatini oshirish, fermerlar harakatini qo'llab-quvvatlash – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Viloyatda 2011 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 1269250,1 mln so'mni tashkil qilgan va 2010 yilga nisbatan qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti 102,2 foizdan iborat bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 629235,4 mln so'mni, chorvachilik mahsulotlari 640014,7 mln so'mni tashkil etadi.

Agrar sektorda foydalanishga mo'ljallangan qishloq xo'jalik ekin maydonlari 1949591 ming gektar bo'lib, shundan boshqoli don ekinlari bilan band qilingan er 235996 gektar, paxta ekin maydoni 162170 gektar, kartoshka 6217 gektar, poliz ekinlari 5499 gektar, sabzavot ekinlari 14251 gektardan iborat.

Fermer va dehqon xo'jaliklar o'tgan yilda 820339 tonna boshqoli don mahsulotlari ishlab chiqargan, 293474 tonna paxta etishtirilgan. Kartoshka o'tgan yilga nisbatan 9,7 foiz, sabzavot – 7,1 foiz, poliz ekinlari – 9,8 foiz, meva va rezavorlar – 3,9 foiz, uzum – 11,4 foiz ko'p ishlab chiqarilgan.

Chorvachilikda yirik shoxli qoramollar 1093148 boshga yoki 2010 yilga nisbatan 7,6 foiz, qo'y va echkilar 3351056 boshga yoki 6,8 foiz, paramndalar 2937142 boshga yoki 18,5 foizga ko'paygan.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida 139595 tonna tirik vaznda go'sht yoki 2010 yilga nisbatan 7,7 foiz, 547164 tonna sut yoki 9,4 foiz, 135805 ming dona tuxum yoki 13,0 foiz, 5230 tonna jun yoki 7,7 foiz, 2802,3 tonna pilla yoki 9,8 foizga ko'p etishtirilgan.

O'tgan 2011 xo'jalik yilida fermer xo'jaliklar tomonidan 821492 tonna don, 86736 tonna kartoshka, 268075 tonna sabzavot, 89192 tonna poliz, 65074 tonna meva etishtirilib, shartnoma asosida davlatga sotilgan, xodimlariga berilgan, zahirada saqlangan va ehtiyojdan ortiqchasi mahalliy bozorlarda iste'molchilarga sotilgan.

Xullas, fermer xo'jaliklari g'alla, paxta, pilla etishtirishga ixtisoslashib yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi etarli darajada ko'rsatkichlarga ega bo'lsalarda, go'sht, sut, tuxum kabi chorvachilik mahsulotlarini etishtirishda past ko'rsatkichga egadirlar. Ya'ni, 2011 yilda go'sht etishtirish bo'yicha 1,2 foiz, sut ishlab chiqarishda ishlab chiqarishning umumiy hajmiga nisbatan 1,9 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 3,1 foiz ulushni tashkil etadi.

Bunday holatning sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- chorvachilik mahsulotlari go'sht, sut ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari sonining etarli emasligi;
- chovachilik mahsulotlarini etishtirish borasida moddiy manfaatdorlikning kamligi va unga kafolatli buyurtmachilarning kamligi;
- mahalliy bozorlarda chorva mahsulotlari bilan savdo qiladigan fermerlarga qarashli savdo do'konlarini tashkil etimaganligi va h.q.

O'zbekistonda hozirgi sharoitda fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va tejash maqsadida mavjud resurslardan samarali foydalanishning aniq tadbirlarini joriy etish;

fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ob'ektlari ishini yanada rivojlantirish va ushbu sohada raqobat muhitini shakllantirish;

oziq-ovqat muammosi salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishni optimallashtirish, ilm-fan tavsiyalaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Fermer xo'jaliklarini optimallashtirish tufayli ishlab chiqarishga innovasiyalarning kiritilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik yangiliklarini joriy etilishini tezlashtirishni amalga oshirilishi bilan chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga erishish mumkin.

3.4. Mamlakat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari tahlili

Respublikamiz qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy islohotlar;
- erdan foydalanish borasidagi islohotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug'urta sohasidagi islohotlar;
- narx-navo tizimidagi islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan **mulkiy-tarkibiy islohotlarda** birinchi navbatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga muhim e'tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yirik tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida 1999-2007 yillarda jami 2102 ta istiqbolsiz shirkat xo'jaligi bosqichma-bosqich tugatilib, ularning negizida 158738 ta fermer xo'jaligi tashkil etilgan edi.

Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining er maydonlari hajmi maqbullashtirildi.

Bu jarayonda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini o'stirishga imkon yaratuvchi quyidagi omillar e'tiborga olindi:

fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan er maydonlaridan yaxlit konturlarda, yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;

fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligini e'tiborga olish;

suv va boshqa moddiy resurslarni tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo'llashga qulay sharoit yaratish;

yiriklashtirilgan fermer xo'jaliklarining kompleks mexanizasiyalashuv borasidagi moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

zarar bilan ishlayotgan va o'zini oqlamayotgan kichik fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barham berish.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha er maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan er maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lmoqda

Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu borada ayniqsa qulay moliya-kredit va soliq mexanizmlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Islohotlar davomida fermer xo'jaliklarini moliya-kredit va soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning samarali tizimiga asos solindi:

- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi;

- fermer xo'jaliklari uchun erlarning unumdorligiga bog'liq bo'lgan yagona er solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlarjoriy etildi;

- fermerlarga texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida etkazib berish tartibi joriy etildi;

- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi;

ball boniteti past bo'lgan ehlarda paxta va g'alla etishtiradigan fermer xo'jaliklarining zararini qoplash maqsadida ularga moliyaviy yordam berish tizimi joriy etildi;

irrigasiya va meliorasiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotga tatbiq qilinadi.

Tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit siyosatida dehqon (yuridik shaxs maqomidagi) va fermer xo'jaliklari uchun bir qator imtiyozlar belgilangan bo'lib, ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:


tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalangani uchun imtiyozli foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

“Mikrokreditbank”ning mablag'lari hisobidan beriladigan, eng kam ish haqining 200 barobarigacha bo'lgan boshlang'ich sarmoya uchun mikrokreditlar yillik 5 foizli stavkada, biznesni kengaytirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun eng kam ish haqining 500 barobarigacha mikrokreditlar Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

yangi tashkil etilgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 150 barobari, fermer xo'jaliklariga esa 300 barobari miqdorida boshlang'ich sarmoya uchun yillik 5 foizli imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yildi;

davlat ehtiyoji uchun don va paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga beriladigan avans mablag'larining oldindan 3 foizli imtiyozli stavka bilan kredit tarzida berilishi yo'lga qo'yildi.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2003-2011 yillarda respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar qiymati 2003 yildagi 309,1 milliard so'mdan 2011 yilda 1 598,8 milliard so'mga oshdi.



3.2-rasm. O'zbekistonda 2003-2011 yillarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, million so'mda

Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi tijorat kreditlari foiz stavkasidan 2-3 barobar past bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosatining natijasidir va fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

- Soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan fermer xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan to'qqizta soliq turi o'rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalariga uchun yagona er solig'i joriy qilingan bo'lib, u har tomonlama qulaylikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo'jaligi sohasida **bir qator soliq va bojxona imtiyozlari** qo'llanadi:

yangidan tashkil etilgan, paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar etishtiradigan fermer xo'jaliklari 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona er solig'i to'lashdan ozod etildi;

fermer o'z hisobidan o'zlashtirgan er uchun besh yil davomida yagona er solig'i to'lashdan ozod qilindi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan, xorijiy texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari hamda chet el texnikalar uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq, chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlaridan ozod etilgan.


Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida harid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda lizingdan foydalangani uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilandi.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan narx islohoti qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan, davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, 2009 yilda davlat byudjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalarini ozod etildi, natijada shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to'lanadigan xarid narxlari oshirildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichki narxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda jahon bozorida paxta tolasi narxlarining birmuncha yuqori ekanini inobatga olgan holda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011 yil davomida fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan ijobiy farq summasi 403 315 million so'mni tashkil etdi. Bu holat jahon bozorida qulay kon'yuktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda, shartnoma asosida belgilanmoqda.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat



3.3-rasm. Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, milliard so'mda.

ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratish amaliyotda qo'llanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrdagi "Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-725-sonli Qarorida fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish, Moliya vazirligiga har yili Davlat byudjeti loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga er solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan mablag'lar ajratish vazifasi yuklatildi. Mazkur qarorga muvofiq, ball boniteti past erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi etishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar qiymati 2008 yildagi 60 milliard so'mdan 2012 yilda 160 milliard so'mga oshdi.

Ushbu mablag'lar fermerlarning xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo'lmoqda.

3.5. Mamlakatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlili

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining real tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz tomonidan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan edi.

- Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" da bayon etilgan.

- "Ming afsuski, biz modernizatsiya deganda, ko'pincha sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishni tushunishga o'rganib qolganmiz. Holbuki, sanoat bilan bir qatorda iqtisodiyotimizning qishloq xo'jaligi kabi etakchi sohasini ham modernizatsiya qilish, uning tarkibiga kiradigan deyarli barcha tarmoq va ishlabksida texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirishga katta ehtiyoj sezilmoqda."□

- Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;

- qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish hisobidan ekinlar hosildorligini oshirishga erishiladi. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;

- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobari, kartoshka etishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;

- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobardan, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;

- (zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7 barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlarini 1,8 barobar, sut mahsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va meliorasiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar er maydonining meliorativ holatini yaxshilash;

(qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va agrar lab chiqarishni modernizasiya qilish yuzasidan jami 575 gektar er maydonlarida intensiv bog'lar barpo etildi. Bu bog'larda yuqori iste'mol xususiyatiga ega va serhosil bo'lgan mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Bunday bog'larning yaratilishi mamlakatimiz aholisini sifatli meva mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash imkonini yaratadi. Birgina 2011 yilning kuzi va 2012 yilning bahorida jami 7661 gektar maydonda yangi mevali bog'lar, shundan 2110 gektar erga maydonga intensiv bog'lar barpo etish, 8518,8 gektar maydondagi bog'larni qayta ekish rekonstruksiya qilish belgilangan.

Mamlakatimiz aholisini meva va sabzavotlar bilan yil davomida bir me'yorda ta'minlab borish uchun keng tarmoqli sovetish kameralariga ega bo'lgan omborlar tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 105-sonli qaroriga muvofiq, aholi va tashqi bozorlarga yil davomida muntazam meva-sabzavotlarni sof holda etkazib berish maqsadida 2011-2015 yillarda 120,8 ming tonna sig'imga ega yangi sovetish kameralarini qurish va 49,1 ming tonna sig'imga ega mavjud sovetish kameralarini modernizasiya qilish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini muttasil yuksaltirish vazifasi birinchi navbatda sug'oriladigan erlarning unumdorligi va irrigasiya-meliorasiya holatiga bog'liq.

“Ayni paytda biz qishloq xo'jaligi sohasida birinchi navbatda, tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko'rish, barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, seleksiya va urug'chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish bilan bog'liq, hali-beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ham e'tirof etishimiz zarur.” □

Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra, o'rtacha sho'rlangan erlarda ekinlarning hosildorligi sho'rlanmagan erlarga nisbatan 50-60 foizga, o'ta sho'rlangan erlarda esa 90-100 foizga past bo'lishi aniqlangan.

O'tgan yillar davomida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi «YErnlarni meliorativ holatini yaxshilashning tizimlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3932-sonli Farmoniga muvofiq, Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Dasturda meliorativ tizimlarni rivojlantirish va takomillashtirish xamda erlarning meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan quyidagi tadbirlar majmuasini amalga oshirish mo'ljallangan:

1. Magistral va xo'jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash.
2. Meliorativ nasos stansiyalarini, gidrotexnika va suv o'tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish.
3. Suv xo'jaligi qurilishi va suvdan foydalanish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

**Mamlakatimiz bo'yicha meliorativ tadbirlarlarga ajratilgan mablag'lar,
milliard so'mda**

3.4-jadval

Tadbirlar nomi	Jami	Shu jumladan:
-----------------------	-------------	----------------------

	2008-2011 yillarda				
		2008	2009	2010	2011
Meliorativ ob'ektlarni rekonstruksiya qilish va qurish ishlariga	225,1	22,4	57,3	63,8	81,6
Meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash va tiklash ishlariga	222,9	38,6	48,1	59,2	77,0
Lizing asosida meliorativ texnikalar etkazib berishga	101,9	29,3	25,4	27,2	20,0
Jami	550,0	90,3	130,8	150,2	178,6

Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan irrigasiya-meliorasiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat byudjetidan mablag'lar ajratish ishlari davom ettirilmoqda. Jumladan, 2008 yilga bu maqsadlar uchun jami 90,3 milliard so'm ajratilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 178,6 milliard so'mga etdi. O'tgan 2008-2011 yillarda jami ajratilgan mablag'lar qiymati 550,0 milliard so'mni tashkil etdi.

2010 yilda yirik investisiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikasiya obektlari, qishloq xo'jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko'tarish masalalari hukumatimizning diqqat markazida bo'ldi. Hozirgi kunda sug'oriladigan erlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha qiymati 561 million AQSh dollariga teng bo'lgan chet el investisiyalari ishtirokidagi 11 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 2010 yilda qiymati 62,25 million AQSh dollari bo'lgan 9 ta, 2011 yilda esa qiymati 112,9 million AQSh dollariga teng bo'lgan 11 ta investision loyiha asosida erlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida

2006-2011 yillar davomida sho'rlanmagan maydonlar hajmi 2 109 ming gektardan 2 192 ming gektarga kengayib, kuchli sho'rlangan maydonlar hajmi 163 ming gektardan 126 ming gektarga qisqardi. YEr osti sizot suvlari sathining chuqurligi 1,5 metrgacha bo'lgan maydonlar hajmi 2001-2011 yillar davomida 272 ming gektardan 177 ming gektarga qisqardi.

Sug'oriladigan erlardan foydalanish samaradorligini oshirishda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning ilg'or, zamonaviy usullarini joriy etishning ahamiyati kata. Chunki, respublikamizdagi suv tanqisligi sharoitida sug'orishning zamonaviy usullarini qo'llash orqaligina aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tobora o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizning bir qator hududlarida ekinlarni sug'orishning yangi texnologiyalari sinovdan o'tmoqda va qo'llashga tavsiya etilmoqda. Birgina 2011 yilning o'zida 1571 gektar erga tomchilatib sug'orish texnologiyasi, 543 gektarga egatga polietilen plyonka to'shab sug'orish tizimi, 753 gektarga ko'chma va egiluvchan quvurlar orqali sug'orish tizimi joriy etilgani diqqatga sazovordir.

Muxtasar qilib aytganda, sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida olib borilgan ishlar natijasida:

sug'oriladigan erlarda er osti suvlari sathi va sho'rlanish darajasi pasayib, ekin maydonlarining meliorativ holati yaxshilanmoqda;

xo'jaliklarni suv bilan ta'minlash tizimi yaxshilanib bormoqda;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi ortib, xo'jaliklarining daromadlari yuksalmoqda.

Pirovard natijada erlarning unumdorligi, paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda tarmoqni yuqori unumli texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashning ahamiyati beqiyosdir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan haydov va chopiq traktorlari hamda qishloq xo'jaligi mashinalarining katta qismi eskirib, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgani sir emas. Shuningdek, bunday texnikalarning ish unumi, yoqilg'i sarflash me'yorlari zamonaviy talablarga javob bermasligi oqibatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish tannarxi oshib ketmoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligiga yuqori unumli, zamonaviy va resurslarni tejaydigan texnikalarni jalb etish, bu borada avvalo chet elning ilg'or kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlash talab etiladi. Jumladan, Germaniyaning «Klass» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini

ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

“Chopiq traktorlarining 55 foizdan ortig'i va er haydaydigan traktorlarning 46 foizi 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgani, boshqacha aytganda, ular belgilangan foydalanish muddatini allaqachon o'tab bo'lgani, quvvati, ish unumi va yoqilg'i iste'mol qilish bo'yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydigan eski texnikalar ekani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi”.

2006-2011 yillarda mamlakatimiz bo'yicha yangi sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari

3.5-jadval

Texnikalar nomi	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2006-2011 yillar davomida jami
Traktorlar, jami	<i>2211</i>	<i>1652</i>	<i>2231</i>	<i>3007</i>	<i>2671</i>	<i>2124</i>	<i>13896</i>
Haydov traktorlari	634	164	454	191	378	546	2367
sh.j.yuqori unumli	2	6	6	36	83	297	430
Chopiq traktorlari	1182	1293	1174	1697	1359	1098	7803
Traktor tirkamalari	368	250	348	1421	691	882	3960

Kultivatorlar	503	279	440	1433	633	315	3603
Chigit seyalkalari	352	178	237	215	320	552	1854
Pluglar	130	90	117	244	67	153	801
Don o'rish kombaynlari:	116	93	332	123	167	245	1076
sh. j. yuqori unumli	55	52	86	110	167	245	715

Qishloq xo'jaligi texnikalarini yangilash bo'yicha olib borilayotgan maqsadli tadbirlar natijasida keyingi 6 yil ichida jami 13896 ta traktor, 3960 ta traktor tirkamasi, 3603 ta kultivator, 1076 ta don o'rish kombayni va boshqa yuqori unumli texnikalar xarid qilingan.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish dasturida dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Sir emaski, respublikamizning chorvachilik tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri bo'lishiga qaramay, sohada o'z echimini kutayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, chorva mollarining mahsuldor va kasalliklarga chidamli zotlarini etishmasligi, chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini yaratish borasidagi muammolar shular jumlasidandir. Masalan, chorvachilik sohasini oladigan bo'lsak, bu borada ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash o'rinlidir. Taqqoslash uchun quyidagi bir misolni keltiraman: Daniya va Janubiy Koreyada sut sog'ib olish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 8-9,5 ming kilogrammni, Vengriya, Germaniya, Gollandiyada esa 6-7 ming kilogrammni tashkil qilayotgan bir paytda, bizda keyingi besh yilda bu raqam 1,7 ming kilogramm darajasida saqlanib qolmoqda.

Respublikamiz hukumatining chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish dasturlarida asosiy e'tibor chorva mollarining naslini yaxshilash, mahsuldorligini

oshirish, tarmoqda servis xizmatini rivojlantirish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan. Buning uchun:

- chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash;
- naslchilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis xizmati, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

ozuqa ekinlari maydonlarini kengaytirish va optimal joylashtirish, lalmi ehlarda chorva mollari uchun ozuqa etishtirish ko'lamini kengaytirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda chorvachilik taraqqiy etgan mamlakatlardan zotdor mollarni olib kelib, urchitishni tashkil etishga jiddiy e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 2006-2011 yillar davomida respublikamizga xorijdan jami 23286 bosh naslli qoramol keltirilgan.

Respublikamiz hukumati tomonidan mamlakatimizda chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish borasida ham maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga muhim hissa qo'shishi shubhasiz.

3.6. Mamlakatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning istiqboldagi asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrar tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli dasturi quyidagi eng muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlar va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish borasida barcha sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishida tomonlar mas'uliyatini oshirish.

Qishloq xo'jaligida erdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish yo'nalishi bo'yicha tuproq unumdorligini yaxshilash va meliorativ holatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha hududlarda qishloq xo'jaligi erlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past er maydonlari salmog'ini kamaytirish.

Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo'jaligi tizimida moddiy va ma'naviy eskirgan irrigasiya-meliorasiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug'orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, er maydonlari meliorativ holatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash tadbirlarini amalga oshirish.

Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beradigan navlarni joylashtirish.

Chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobidan uning mahsuldorligini oshirish. Buning uchun:

chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

naslchilikni tubdan yaxshilash;

tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;

parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;

chorva mollarida uchraydigan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;

ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajasiga erishish, bunda lalmi erlardan chorva ozuqasi etishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

O'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhit muhofazasi nuqtai nazaridan:

qo'riqlanadigan hududlar davlat kadastrini joriy etish;

o'rmon xo'jaligida mevali, manzarali daraxt ko'chatlarini etishtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

hududlarning ekologik holati geografik-axborot tizimini ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish.

Qishloq xo'jaligi, xususan, chorva va meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik xususiy korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarini modernizasiya qilish, ho'l meva-sabzavot va tayyor mahsulot eksport qiladigan sub'ektlar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish.

Qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrar tarmoqda servis xizmatlari ko'rsatish sohasini rivojlantirish, bozorga tez moslashuvchi sub'ektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish:

davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla etishtirishni asosan imtiyozli kreditlash orqali moliyalashtirib borish tizimini takomillashtirish;

paxta va g'alladan boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligi uchun texnika, extiyot qismlar, naslli chorva mollari, urug'lik va ko'chatlar, zamonaviy texnologiya va uskunalar, dori-darmon, kimyoviy preparatlar import qilishda soliq va bojxona imtiyozlari tizimini yanada kengaytirish;

qishloq joylarga kichik sanoatni jalb qilishda soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

mahalliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida proteksionizm siyosatini doimiy ravishda amalga oshirish;

unumdorligi past bo'lgan, shuningdek, nasoslar bilan sug'oriladigan maydonlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish.

Agrotexnika fanini rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish. Bu sohada:

atrof-muhitga ekologik zarar keltirmaydigan texnika va texnologiya hamda xomashyo resurslarini qayta ishlashda yangi uslublar ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari birlamchi urug'chiligini tashkil qilish tizimini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligining amaliy muammolarini hal etishda innovasion loyihalardan keng foydalanish va bunda innovasion loyihalarni moliyalashtirishning bank orqali kreditlash tizimini joriy etish;

qishloq xo'jaligida gen muhandisligi borasida to'plangan jahon tajribasidan keng foydalangan holda milliy tizimni yaratish;

ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borish;

xorijdan keltirilgan naslli urug'lar asosida yuqori mahsuldor mahalliy chorva mollari, parranda va pilla qurti zotlarini yaratish.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish.

4. Мавзу бўйича дарс ишланмаларини ишлаб чиқиш

4.1. Назарий дарс ўтиш методикасининг умумий масалалари

Касб-хунар коллежларида назарий дарс машғулотларни олиб бориш учун коллеж ўқувчиларининг назарий билимларига мурожаат қилишнинг баъзи йўллари белгиланган. Назарий таълим беришнинг кенг тарқалган, аммо кам самарали усули машғулот режасида белгиланган ишларни бажаришда асосланиладиган маълум тушунчалар ва қоидаларни оғзаки қайта тиклашдир.

Фан бўйича ўтиладиган назарий машғулотлар коллеж ўқувчиларини назарий билимлар билан таъминлайди. Шуни ҳам алоҳида қайд этиш лозимки, бўлажак кадрларни касбий шаклланишига хизмат қилувчи назарий машғулотларни олиб боровчи фан ўқитувчисининг педагогик маҳорати муҳим аҳамият касб этади.

Назарий дарсни асосий мақсади – ўқувчиларга ўргатиладиган фанни асосий назарий қисмини тушунтиришдан иборат. Бунда дидактиканинг илмийлик тамойилига асосланади. Назарий дарс ўтишда асосан фанлараро боғлиқликка катта эътибор бериш керак.

Касб-хунар коллежларида назарий дарс ўтишда қуйидаги асосий таълим хусусиятларига эътибор берилиши лозим.

1. Берилаётган билим, тушунча илмий асосга эга бўлиши ва аниқлик омиллар билан тўлдирилган бўлиши;
2. Ўқитиш давомида тарбияга эътибор бериш;

3. Тушунтирилаётган мавзулар узлуксиз, илмий асосга эга ва ўқувчилар тушуна оладиган бўлиши;
4. Назарий дарс ҳаётий ва янги маълумотлар билан боғлаб олиб борилиши;
5. Ўқитиш бир тизимли, изчил, фанлараро ва бир фаннинг ўзидаги ўзаро боғлиқликлар асосида бўлиши;
6. Ўқувчиларни дарс давомида қизиқишларини ошириш;
7. Кўргазмали куроллар ва ўқитишнинг замонавий воситаларидан фойдаланиш.

Дарс давомида ҳар бир ўқувчининг индивидуал тавсифларини ҳисобга олиш.

Касб-ҳунар коллежларида назарий таълим бериш жараёни одатда, 2 соатлик дарсларда қўлланилади. Назарий дарс ўтишда ўқитувчининг роли катта. Ўқитувчи баён қилаётган материалнинг исботланганлиги, исбот ва далилларнинг чуқурлиги ўқувчиларда назарий таълим олишларида катта тарбиявий таъсир кўрсатади. Назарий таълим беришда тарбиявий ишларга ҳам эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ.

4.2. Касб-ҳунар коллежларининг ўқув ва йиллик мавзулар режаси

Касб-ҳунар таълимида ўқув режаси ва дастури ўқув жараёнини аниқ ташкил этишнинг асоси бўлиб, у дидактик тамойилларга тўла-тўқис мос келадиган бўлиши лозим. Ҳар бир ўқитувчи таълим режаси ва дастурини бажаришни, ўқув материалларининг мазмунига тўлиқ жавоб берадиган таълим топшириқларини, билим, кўникма ва малакаларини юқори даражада бўлиши учун жавобгардир.

Ўқув дастурлари- аниқ фан бўйича ўқитишнинг мазмунини, айти фаннинг ҳажмини ва уни ўрганиш тартибини белгилайди. Ўқув дастурларини мазмуни қўйидагича: боб ва мавзулар бўйича билим, ўқув, малакалар ҳажми, фанни ўрганиш тартиби, ҳар бир фан учун белгиланган вақт, айти фан бўйича дарсликлар ва қўлланмалар.

Касб-ҳунар таълими ўқув режа асосида олиб борилади. Ўқув режаси- давлат ҳужжатидир. Ўқув режаси таълим Вазирлиги томонидан тасдиқланди. Режага киритилган фанлар таълимнинг илмийлиги, ғоявийлиги, миллийлиги ҳамда ўзининг келажига муносиблиги, маънавий етук баркамол инсонни тарбиялашни назарда тутди.

Йиллик мавзулар режаси-ўқув дастурини асосий қисмини ташкил этиб, унда мавзулар тартиби ва номи, шу жумладан назарий, лаборатория, амалий машғулотлар учун ажратилган вақтлар берилган бўлади.

Касб-ҳунар коллежларида тақвимий режа фан ўқитувчиси томонидан тузилади. Ўқув йилидаги фаннинг мазмунини тақвим-мавзувий режа очиб боади.

Қўйидаги 4.2-жадвалда қишлоқ хўжалик касб-ҳунар коллежларида қишлоқ хўжалик машиналарини ўқитиш йиллик мавзулар режасидан намуналар келтирилган.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎРТА МАХСУС КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИ МАРКАЗИ

Ўқитувчи Каримов Голиб Усмоновичнинг Дехқон ва фермер хўжаликлари иқтисоди фанидан бухгалтерия ҳисоби ва аудит таълим йуналишининг II курс БХ-23 гуруҳ учун 2011-2012 ўқув йилига мўлжалланган

ЙИЛЛИК ТАҚВИМИЙ МАВЗУЛАР РЕЖАСИ (намуна)

2010 йил 25 августда тасдиқланган дастур асосида тузилган

Режадаги жами соатлар	54 соат
Шу жумладан маъруза учун	18 соат
Амалий машғулот учун	36 соат

**Иш режа иқтисодиёт фанлари
«ТАСДИҚЛАЙМАН»
кафедраси йиғилишида кўриб
чиқилди ва 25.08.2009 йилда
№ 05 сонли мажлис қарорига
асосан маъқулланган**

й.

Кафедра мудири _____

Директор муовини

«__» _____ 20

Қарши 2012 йил

ЙИЛЛИК ТАҚВИМИЙ МАВЗУЛАР РЕЖАСИДАН НАМУНА

Дарс №	Бўлим ва мавзулар номи	Ажратилган соат	Муддат	Дарс тури	Кўргазмали қуроллар ва техник воситалар	Ўқувчилар учун топшириқлар	Изоҳ
1.	Фермер хўжаликларида такрор ишлаб чиқариш	2		назарий	Мавзуга тааллуқли слайдлар, транспортант, кодоскоп, компьютер ва проектор	1, 2, 3 адабиётлар	
2.	Фермер хўжаликларида такрор ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари	2		назарий	Мавзуга тааллуқли рангли плакатлар, слайдлар, кодоскоп, компьютер ва проектор	2, 3, 4 адабиётлар	
4.	Фермер хўжаликларида такрор ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари	4		Амалий машғулот	Инструкцион технологик карта, анимацион дастурлар, ўқув ва услубий кўрсатмалар, тарқатма ва ишчи варақалар	Амалий машғулот топшириғини тайёрлаш, 1, 2, 3 адабиётлар	

4..3. Назарий дарс ўтиш методикаси

Мавзу: Фермер хўжаликларида такрор ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари

Дарснинг тури: Назарий машғулот.

Дарс учун ажратилган вақт: 2 соат

Дарс ўтиш жойи: Замонавий дидактик воситалар

мажмуаси

билан жиҳозланган фан хонаси

Ўқитиш услуби: оғзаки, кўргазмали-тушунтириш,

педагогик

технология

Дарснинг жиҳозланиши.

Фермер хўжаликларида такрор ишлаб чиқаришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари мавзусидаги мультимедияли электрон дарслик, такдимот слайдалари, анимацион дастурлар, диаграмма ва жадваллар, компьютер ва проектор ва бошқа дидактик воситалар.

Назарий машғулот мақсади

Асосий мақсади:

Ўқувчиларга Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш рентабеллиги ва уни ошириш имкониятларини таълимнинг замонавий техник воситалари ёрдамида кўргазмали-тушунтириш, таянч ибораларни ёздириш, чизмаларни чизиш ва мавзунини пухта ўргатиш.

Тарбиявий мақсади:

Ўқувчиларга Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш рентабеллиги ва уни ошириш имкониятларининг муҳим аҳамияти, зарурати ва ўрнини тушунтириш, уларни ўз касбига бўлган ижобий муносабатини шакллантириб бориш.

Шакллантирувчи мақсад: Ўқувчиларни мавзуни мустақил равишда ўрганишга ва таҳлил этишга тайёрлаш билан уларда иқтисодий билимларни шакллантириш.

Дарсинг бориши

I. Ташкилий қисм

Ўқув аудиториясига ўқитувчи кирганидан сўнг ўқувчилар билан саломлашади, ўқувчилар давоматини аниқлайди ва дарс хонасини машғулот ўтишга тайёргарлигини кўздан кечиради.

1. Ўқувчилар давоматини аниқлаш ва махсус журналларга қайд этиш;
2. Мавзу бўйича моддий-техник таъминотнинг мавжудлиги ва тайёрлигини текшириш.

II. Ўтилган олдинги дарсни ўқувчилардан сўраш

1. Олдинги дарсда ўтилган «Бозор иқтисодиёти шароитида фермер хўжалигида пахта етиштиришнинг иқтисодий самарадорлиги» мавзусини ўқитувчи томонидан тузиб келинган махсус саволлар орқали ўқувчилардан сўраш ва уларнинг мавзуни ўзлаштириш даражаларини баҳолаш.

2. Берилган савол-жавоблар асосида ўқувчилар билимини баҳолаш ва уларга эълон қилиш.

Ўтилган мавзуни сўраб баҳолашда ўқувчиларга иложи борида юқори балл қўйиш мақсадга молик, сабаби юқори балл олган ўқувчининг шу фанга бўлган иштиёқи сезиларли даражада ортади.

3. Ўтилган мавзуни мустақамлаш.

Ўтган дарсда ўтилган мавзуни ўқувчилардан сўраб баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Мавзуни қисқа, равшан ва аниқ фактларга таяниб сўраш лозим. Берилган саволларга жавоб берган ўқувчиларни баҳолашда уларни айрим жиҳатларига эътибор қаратиш лозим. Бу жиҳатларга ўқувчиларнинг берган жавобларининг тўғрилиги, ўзини тута билиши, тушунтиришдаги нутқида, қизиқишига, ҳатти-ҳаракати ва фанга бўлган муносабатлари киради. Ўқувчиларни баҳолашда имкон қадар юқори балл қўйиш мақсадга молик. Бу ўқувчининг шу фанга бўлган қизиқишини, ҳурматини оширади ва кўпроқ ўз устида ишлашига олиб келади.

Ўқитувчи мавзунинг қониқарли тушунтирилмаган бандларини ўқувчиларга қайта тушунтиради ва янги мавзуга боғлайди.

III. Ўтилган мавзуни янги мавзу билан боғлаш

Янги мавзуни баён этишдан олдин ўқитувчи ўтилган мавзуни такрорлаб, уни янги мавзуга боғлаши ўқувчиларнинг янги мавзуни тез идрок қилишлари ва осон тушунишларига ёрдам беради.

IV. Ўрганилаётган мавзу бўйича тарқатма материаллар тарқатиш

Янги ўтилиши лозим бўлган мавзу материаллари бўйича ўқитувчи тарқатмали материаллар тарқатади. Мавзу бўйича тайёрланган «кейс папка» ўқувчиларга тақдим этилади. Улар мавзу матнлари, расмлар, жадваллар, диаграммалар слайдалар шаклида бўлиши мумкин. иложи борида тайёрланган ўқув тарқатма материаллари ҳар бир ўқувчига алоҳида-алоҳида даражада бўлиши мақсадга мувофиқ. Тарқатма материалларни ташқи дизайнига алоҳида эътибор берилиши лозим. Улар оддий, тушунарли ва ўқувчининг диққатини жалб этиши ва мавзуга нисбатан қизиқишларини орттириши лозим. Бинобарин, ўрганилаётган материал ҳақида қизиқарли муаммолар берилган бўлиши лозим.

V. Назарий дарсда тарқатмали материалдан фойдаланиш методикаси

Тарқатма материаллар –таълим олувчилар учун ўрганилаётган мавзуга оид асосий маълумотларни ўз ичига олган, ҳажми унча катта бўлмаган (1-2 варақ) ёзма ўқув материали ҳисобланади. Мазкур материаллар машғулоти қизиқарли қилиш имконини бериб, кўп ҳолларда таълим олувчилар учун мустақил равишда ўқиб чиқиб муҳокама қилиш учун мўлжалланган бўлади. Тарқатма материалларни тайёрлаш ва қўллашда қуйидаги қоидаларга риоя қилиш лозим:

1. Таълим олувчиларга ҳаддан ташқари кўп тарқатма материаллар бермаслик.

2. Сарлавҳаларни бош ҳарфлар билан ёзиш, бир машғулоти учун иккита материал зарур бўлса, уларга код-ном бериб уларни ажратиш лозим.

3. Матн шрифти 12 дан кичик бўлмаслиги керак.

4. Бир бетда 80 тадан кўп белги (харф, қавс, ундов белгиси) ишлатмаслик лозим.

5. матнлар тушунарли, қисқа ва оддий бўлиши керак.

6. Варақ дизайни эътиборни ўзига тортиши керак.

Ишчи варақалар – гуруҳларда, жуфт бўлиб ва индивидуал машқлар бажаришда қўлланилади. Улар турли жадваллар шаклида бўлиб, таълим олувчилар томонидан тўлдириш талаб қилинади.

Назорат варақалари – машғулот якунида таълим олувчиларнинг ўзлаштирган билимларини текширишда қўлланилиб, улар тест саволлари, масалалар каби шаклларда бўлиши мумкин.

VI. Янги мавзунини баён этиш

Янги мавзунини баён этишдан олдин, компьютер проектори ёрдамида мавзу ва мавзу режалари доскага проекцияланади. Мавзу ва режалар имкон борича дарснинг охиригача сақланиши мақсадга мувофиқ.

Мавзуга доир таркатма материаллар ўқувчилар эътиборига етказилади ва дарс учун ажратилган вақтдан унумли фойдаланилади.

VII. Назарий дарс машғулотларида замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш

Таълимнинг техник воситалари ўтилатган материаллар мазмунини ўқувчиларга кўргазмали усулларда етказиб, таълим сифати ва самарадорлигини сезиларли даражада оширади ҳамда ўтилатган материаллар ўқувчилар томонидан тўлиқ идрок этилиб, пухта ўзлаштирилади.

Ўқитишнинг кургазмалилик принципи дидактиканинг асосий принципларидан бири ҳисобланади. Кургазмалилик ўқувчилар тасаввур доирасини бойитади, таълим олишини осонлаштиради ва тушунарли қилади, ҳамда укув маълумотларини чуқур, пухта узлаштиришга ёрдам беради. Маъруза ўқув хоналарини кўргазмали воситалар билан жиҳозланиши 20% дан ошмаслиги лозим. Кўргазмалиликнинг меъёрдан кўплиги ўқувчилар диққатини чалғитади ва уларни толиқишига сабабчи бўлади. Тажрибалар кўргазмали куролларни ишлатишда ахборотларни қабул қилиш даражасини 15% га, ўзлаштиришни 20% га, олинган билимларнинг мустаҳкамлигини 10% га оширишини кўрсатади. ЮНЕСКО нинг берган маълумотига кўра одам эшитиш орқали сўз ахборотининг 15% ни, кўз орқали кўрганларининг 25% ни, ҳам кўриш ҳам эшитиш орқали қабул қилинган ахборотнинг 65% ни хотирада сақлаб қолар экан.

Шу боис мавзуга доир материаллар диапозитивларда тайёрланган ёки таранспоранларда чоп этилган бўлиши ва уларни ўқитишнинг техник воситаларида намоиш этиш мақсадга мувофиқ. Бу назарий машғулот учун ажратилган вақтдан унумли фойдаланиш, ўқувчилар томонидан материални идрок қилиш вақтини қисқартириш, материални узок вақт хотирада сақлаш, ўқувчиларни дарсга бўлган ижобий муносабатларини шакллантириш каби афзалликларни яратади.

Мавзу юзасидан бериладиган видеороликлар дарс сўнгида 15...20 минут давомийлигида намойиш этиш лозим.

VIII. Янги мавзуни мустаҳкамлаш

Дарс охирида ўқувчилар янги ўтилган мавзуни чуқурроқ тушунишлари учун қуйидагилар амалга оширилади:

1. Ўқувчилар томонидан берилган саволларга жавоб бериш;
2. Мавзу юзусидан ўқувчиларга савол бериш ва ўтилган дарсни хулосалаб яқунлаш.

IX. Уйга вазифа бериш

1. Ўқувчиларга уйга вазифа беришда дарслик, ўқув қўлланма рўйхати, маъруза матнларининг электрон талқинлари, тарқатма материаллар дискетларда берилиши лозим.
2. Мавзуни ўқиб ўрганиш, конспектлаштириш, чизмаларни чизиш ва мавзуга тааллуқли интернет янгиликларини олиб ўрганиш.

5. Амалий ёки семинар машғулотини ўтиш методикаси

5. 1. ўқитиш усуллари тўғрисида тушунча.

Таълим жараёнида тўғри усул танлар эканмиз, кўзланган натижага комил ишонч ва қисқа йўл билан эриша оламиз. ўқитишнинг самарали бориши, ўқувчи-талабаларнинг ҳар бир фанни чуқур ўзлаштириб олишлари, шунингдек улар билимларни онгли ва мукаммал эгаллашлари учун ҳамда ёшларда мустақил ва ижодий фаолият-фикрларининг ривожланишига бевосита ўқитувчининг таълим усулларида кенг ва моҳирона фойдалана олишига боғлиқдир.

Педагогика тарихидан, педагогика амалиётида ҳам ўқитиш усулларида жуда катта бойлиги тўпланган.

ўқитиш усули деганда, таълим жараёнида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг кутилган мақсадга эришишга қаратилган биргаликдаги фаолиятлари тушунилади. ўқитиш усуллари таълим жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи-талаба фаолиятининг қандай бўлишини, ўқитиш жараёни қандай қилиб ташкил этиш ва олиб бориш кераклигини белгилаб беради. Демак, ўқитиш усуллари ҳар иккала фаолиятнинг, яъни ўқитувчи томонидан ўқувчиларни билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш фаолиятида қўлланиладиган йўлларни, усуллари ўз ичига олади. Аммо, ҳар иккала фаолият ҳам ҳаммаша бир хил ва бир йўналишда бўлавермайди. Дарс жараёнида ўтиладиган мавзунинг характери, мазмунига қараб, ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти турлича йўналишда бўлиши мумкин.

Таълим жараёнида маълум бир мақсадни амалга оширишга қаратилган фаолиятнинг турлича бўлиши янги-янги усуллари келтириб чиқаради. ўқитиш усуллари, ўқитувчининг ўқитиш фаолияти тўғрисида ўтмишда ҳам, жумладан Марказий Осиё олимларининг асарларида алоҳида асослаб берилган.

Абу Наср Форобийнинг «Фан ва санъатнинг афзаллиги» рисолида ўқув жараёни ташкил этишга ва ўқитиш методларига қўйиладиган талаблар мукаммал ифодаланган. Олим ўзининг ўқитиш методлари ҳақидаги фикрларида ўқувчиларга турли билимлар бериш билан бирга, мустақил ҳолда билим олиш йўлларини ҳам кўрсатиш, уларни билимларнинг зарурлигига аниқ ишонтириш кераклигини ўқитган.

Барча қомусий олимлар фойдаланган ўқитиш методларини бир неча гуруҳга ажратиш мумкин. Булар: кўрсатмали тажриба усуллари (Ибн Сино), билимларни баён қилишнинг савол-жавоб усуллари (Абу Райхон Беруний, ал-Хоразмий), кўникма ва малакаларни шакллантириш методлари, билимларни текшириш усуллари (Форобий, ал-Хоразмий) ва ҳоказолардан иборатдир. Шуниси диққатга сазоворки, мазкур олимларнинг ҳаммалари ўқувчилар фаолиятини кучайтириш ва уларда мантиқий тафаккурни ривожлантириш мақсадини кўзлаганлар.

Ҳозирда янги педагогик технологияларни таълим жараёнида кенгрок жорий этилиши замирида ўқувчи-талабага берилиши лозим бўлган илмий билимлар кўлами ўқитиш усуллари ва шакллариининг доирасини кенгаштириш зарурлигини тақозо этмоқда. Ўқитишнинг ҳикоя, суҳбат, маъруза, иллюстрация турлари, намоиш қилинадиган асбоб-ускуналар ва приборларни кўрсатиш, машқларни, меҳнат топшириқларини, лабораторияда ўтказиладиган тажрибаларни бажариш, халқ педагогикаси материалларидан фойдаланиш усуллари ва услуги, ўқув мунозаралари, ўқув фаолиятида рағбатлантириш ва танбех, ўқув материалларини муаммоли баён қилиш, муаммоли суҳбатлар, тадқиқот тажрибаларини қўллаш, китоб устида ишлаш, компьютерлардан мустақил фойдаланиш каби усулларни қўллаш, оғзаки сўраш, ёзма ишлар, автоматлаштирилган қурилмалар ёрдамида дастурлаштирилган назорат усулларидан фойдаланиш ва ҳоказолар ўқитувчилар учун жуда тушунарлидир.

Таълим жараёнининг қизиқарли ва самарали бўлишида, ўқувчиларни билим, кўникма ва малакаларни мукамал эгаллашлари учун ўқитувчининг асосий вазифаси дарсда самарали усул-методлардан фойдаланиб, ўқувчи-талабаларнинг илмий салоҳиятини ошириш, мустақил ҳаётга тайёрлаш, шунингдек уларда ахлоқий сифатларни таркиб топтиришдан иборатдир.

Шундай қилиб, ўқитиш усуллари ўқитувчи ва ўқувчилар назарий ҳамда амалий билиш фаолиятининг таълимий вазифаларини бажаришга қаратилган йўлидир. Унга қуйидаги муайян талаблар қўйилади:

1. ўқув материални ўрганишнинг ўқитувчи тавсия этган йўли фикрлашнинг диалектик-материалистик усули мустақил қарашлар, иродавий хусусиятлари ва хулқнинг шаклланишига олиб бориши керак.
2. ўқитиш методининг илмий асоси яққол ва аниқ бўлиши зарур. Шундагина ўқитувчи мазкур усул орқали қандай масалалар қўйилиши ва ҳал қилиниши мумкинлигини, қандай масалаларни ҳал қилиб бўлмаслигини кўра олади.
3. ўқитишнинг тизимлилиги унинг самарадорлигини белгилайди.

4. ўқитиш усулининг тушунарлиги билимларни ўзлаштиришнинг имкониятларига мувофиқ бўлиши лозим.
5. ўқитишнинг онглилик ва фаоллик зарурияти ниҳоятда жиддий талабдир.
6. Билимларнинг пухталиги ва асослилиги.
7. ўқитиш методикасида назарий ва амалий ҳодисаларнинг мувофиқлиги.

Ҳар қандай таълим усулидан бирор мақсадга эришиш кўзда тутилади. Шу боисдан унга эришишда педагогик фаолиятда ўқитувчидан юксак билим, ижодкорлик ва педагогик қобилият ҳамда маҳоратли бўлишни талаб этилади.

5. 2. ўқитиш усуллари

ўқитиш усуллари таснифлашда ўқувчига дастур материалларини ўрганишнинг мақсадга мувофиқроқ йўллари танлаш имконини яратади, ўз ишидаги ютуқ ва камчиликларини тушунишда ёрдам беради, ўқитувчининг фаолиятини такомиллаштириш учун қулай шароит вужудга келтиради.

Таълим тизимида ўқувчиларга билим беришнинг энг қулай имкониятларга асосланган ҳолда ўқитиш усуллари қуйидаги турларга бўлиб ўрганамиз.

1. ўқитишнинг оғзаки усуллари.
2. ўқитишнинг кўргазмали усуллари.
3. ўқитишнинг амалий усуллари.
4. ўқитишнинг муаммоли-изланиш ва репродуктив усули.
5. ўқитишнинг индуктив ва дедуктив усули.
6. ўқувчиларнинг ўқув фаолиятларини рағбатлантириш ва танбеҳ бериш усуллари.
7. ўқитишда назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш усули.
8. Китоб билан ишлаш усули.

ўқитишнинг оғзаки усуллари. ўқитишнинг оғзаки усуллари таълимда доимо энг кўп қўлланиб келинмоқда. Дидактикада ўқитишнинг оғзаки усуллари уч турга: ўқитувчининг ҳикояси, суҳбат ва мактаб маърузасига ажратилади.

Оғзаки баён қилиш усулида икки фаолиятнинг, яъни бир томондан ўқитувчининг ўқув материалларини моҳирлик билан оғзаки баён қилиб бериши

ва иккинчи томондан, баён қилинаётган материалларни ўқувчилар диққат билан тинглаб, онгли ва мустаҳкам ўзлаштиришлари бирлигига амал қилинади. Оғзаки баён қилишда (тушунтиришда) ўқитувчи ўқувчиларнинг психологик ва ёш хусусиятларини яхши билиши, тушунтиришда уларнинг диққатини тез жалб этиши ва билишга доир ишларни фаоллаштириш зарур.

Ҳикоя. Бу усул мактаб таълимининг ҳамма босқичларида қўлланилади. Бошланғич синфларда бу жуда қисқа ва аниқ, юқори синфларда эса катта материалларни баён қилишда тўлиқ ҳикоядан фойдаланилади. Ҳикоя яқунлангач, у суҳбат ва тушунтиришлар билан тўлдирилади.

Ҳикояда ўқитувчининг нутқи ёрқин, айтган сўзлари болаларга тушунарли бўлиши керак. Бошқача қилиб айтганда, ҳикоя қилиш - ўқитувчи томонидан янги ўтилаётган мавзуга оид омил, ҳодиса ва воқеаларнинг яхлит ёки қисмларга бўлиб, образли тасвирлаш йўли билан ихчам, қисқа ва изчил баён қилинишидир.

ўқув материалларини тушунтириш - ўқитувчи томонидан ўтилаётган мавзунинг мазмунини характерлайдиган тушунча, таъриф, қонун ва қоидаларни уқтиришдир.

ўқув маърузаси. Ушбу усулдан янги билимларни ўзлаштириш ва мустаҳкамлаш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш учун фойдаланилади. Агар ҳикоя дарсининг бир қисминигина эгалласа, маъруза одатда, уларни тўла қамраб олади. Маъруза асосан, умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синфларида, ўрта махсус касб-хунар коллежлари ва академик лицей ҳамда олий ўқув юртларида ўқилади.

Суҳбат. Суҳбат таълимнинг кенг тарқалган усули бўлиб, дарсининг исталган босқичида қўлланиши мумкин. Кўпинча, бу усул савол-жавоб усули деб ҳам юритилади. Суҳбатнинг тўрт хил тури мавжуд бўлиб, улар: янги билимлар беришда, билимларни мустаҳкамлашда, олинган билимларни текширишда, ўтилган материалларни такрорлашда қўлланадиган суҳбатлардир.

ўқитиш жараёнида ўрганилаётган мавзу юзасидан кириш, асосий ва яқунловчи суҳбатлар ҳам қўлланилади. Суҳбат мустаҳкамловчи метод сифатида билимларни текшириш ва баҳолашда ҳам ўтказилади.

ўқитишнинг кўргазмали усуллари. ўқитиш жараёнида кўргазмалилик усулидан фойдаланишнинг муҳимлиги ўқитувчининг ўрганилаётган нарса ва ҳодисаларни ҳиссий идрок этишга, уларни кузатиб мушоҳада қилишга ўқувчини ундаш, мантиқий ва назарий элементларнинг бирлигига ишонч ҳосил

қилишга, шунингдек, назарий билимларни амалиётда қўллай олишга ўргата билиши билан изоҳланади.

Таълим жараёнида кўргазмалилик усули намоёниш этиш, иллюстрация ва экскурсия тариқасида олиб борилади. ўқитишда намоёниш этиш усулидан фойдаланиш материалларнинг характериға – мазмуни, шакли ва ҳажмиға боғлиқдир. Кўргазмали материаллар характер эътибориға кўра икки турда бўлади:

1. Аслича кўрсатилиши мумкин бўлган буюм ва нарсалар: ўсимликлар, ҳайвонлар, маъданлар, коллекциялар, асбоб ва машиналар, моделлар ва ҳ.к.
2. Тасвирий-кўргазмали материаллар: буюм, нарса ва ҳодисаларнинг тасвирини ифодаловчи материаллар: расм, сурат, диафильм, кинофильм, жўғрофия ва тарих карталари, чизмалар, жадваллар, диаграммалар ва ҳ.к.

Тасвирий - кўргазмали материаллар – иллюстрация материаллари деб ҳам аталади. Таълим жараёнида тасвирий – иллюстрация материалларидан фойдаланиш кенг қўлланилади.

Экскурсия таълим ва тарбия ишларининг шундай туридирки, бу усул билан ўрганилаётган нарса ва ҳодисаларни табиий шароитда (табиатни кузатиш, завод, фабрика) ёки махсус муассасаларға (музей, кўргазмалар) ташкилий равишда борилади.

ўқитишнинг амалий усуллари. ўқитишнинг амалий усуллариға ёзма машқлар (масалалар ечиш, чизмалар тайёрлаш), тажриба – лаборатория типидаги машқлар (фронтал тажрибалар, лаборатория ишлари, амалиёт, ўқитишнинг техник воситалари ва бошқалар); меҳнат топшириқларини бажариш усуллари киради.

Амалий методлар ўқитишнинг оғзаки ва кўрсатмали методлари билан узвий бирликда қўлланилади. ўқитишнинг амалий усулларидан фойдаланишнинг ижобий томони ўқувчиларни теварак-атрофдаги нарса ва ҳодисаларни мустақил кузатишға бўлган қизиқишини кучайтиради, уларда мустақиллик, фаоллик ва ташаббускорлик ортади. Амалий иш тажрибалари – кўникма, малакалари, ҳосил қилинади ва меҳнат маданияти ривожланади.

ўқитишнинг муаммоли-изланиш ва репродуктив усули.

ўқитишнинг репродуктив ва муаммоли-изланиш усуллари ўқувчиларнинг янги тушунча, ҳодиса ва қонунларни билишдаги ижодий фаолликлари даражасини баҳолаш асосида қисмларға ажратилади. Репродуктив усуллар

биринчи навбатда, ўқувчиларнинг ўқув материалларини мустаҳкамроқ эслаб қолишларини таъминлаш, билишга доир фаолиятни бевосита бошқариш, камчиликларни тез аниқлаш учун амалий кўникма ва малакаларни таркиб топтириш мақсадида қўлланилади.

Репродуктив типдаги амалий машқлар шуниси билан фарқланадики, бу ишларнинг давомида ўқувчилар намунага кўра илгари ёки яқиндагина ўзлаштирилган билимларни қўллайдилар.

Муаммоли вазият - ўқувчининг маълум психик ҳолатидир. Бундай ҳолат маълум топшириқни бажариш жараёнида зиддиятни англаш туфайли вужудга келади. ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятида муаммоли вазиятларнинг шаклланиши уларнинг шахсида қизиқувчанлик, ўткир зехнлилик, мустақиллик, ўқишга қизиқиш ва мустақил изланиш каби фазилатларни тарбиялайди.

ўқитишнинг индуктив ва дедуктив усули. ўқитишнинг индуктив ва дедуктив методлари ўқув материали мазмунининг характери ва мантиғини ёритиш усулидир. Индуктив методда ўқитувчи аввал фактларни тушунтиради, тажрибаларни, кўрсатмаларни қўлланмаларни намоёни қилади ва умумлаштиради.

Дедуктив метод - ўқитувчининг аввал умумий қоидаларни, таърифларни айтиши, кейин аста-секин хусусий ҳолларни, муайян вазифаларни келтириб чиқариш усулидир. Индуктив ёки дедуктив усулларни қўллаш ўрганилаётган мавзу мазмунини очишда хусусийдан умумийга ёки умумийдан хусусийга ўтишнинг қайси бирини танлашни англатади.

ўқитишда назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш усули. ўқитиш тизимида барча таълим муассасаларида таълим жараёнининг самарали булиши учун назорат таълим жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, назорат қилиш туфайли ўқитишдаги ўзаро мулоқот, ўқитишнинг боришини жадал бошқариш ва камчиликларни ўз вақтида тузатиш, янги дарсга аниқ вазифалар қўйиш имконини беради. Назорат ҳам бир қанча турларга: оғзаки, ёзма ва лаборатория турларга бўлинади.

ўқитувчи ёшларни ўз-ўзини назорат қилишга ўргатишда ўз-ўзини тўғри баҳолай билишга, ҳаётда ўзи интилиши лозим бўлган идеални аниқ тушунган ҳолда ўзидаги ижобий сифатларни ва мавжуд камчиликларни кўра олиш маҳоратини шакллантирмоғи лозим. Назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш услубларини ўзаро моҳирона бириктириш барча ўқув фанлари бўйича таълим самарадорлигини оширишга ёрдам беради.

5. 3. Таълим жараёнида ўқувчиларни рағбатлантириш ва танбех бериш усуллари

ўқув фаолиятини рағбатлантириш деб кишининг актив фаолиятга бўлган ташқи майлига айтилади. Шу боисдан рағбатлантириш - ўқитувчи фаолиятининг муҳим омили ҳисобланади. Аммо рағбатлантириш кишининг фаолиятга бўлган ички майлига таъсир қилгандагина реал мақсад сари ундайдиган кучга айланади. Шу билан бирга яна бундай ички ундаш фақат ташқи рағбатлантиришлар таъсиридагина эмас, балки ўқувчиларнинг ўз-ўзининг таъсирида ҳам, унинг олдинги тажрибаси, эҳтиёжлари ва ҳоказолар таъсирида юзага келади.

ўқишга қизиқишни рағбатлантириш турларидан бири - ўқишда маълум қийинчилик сезаётган ўқувчиларга муваффақиятли вазиятларни яратишдир. Рағбатлантириш ўқувчи-талабанинг кўнглини кўтаради, унга қувонч келтиради ва уни янада яхшироқ ўқишга ундайди.

Рағбатлантириш йўллари бу яхши баҳо қўйиш, махсус танланган топшириқлар бериш, фотосуратларини махсус рағбатлантириш ойналарига илиш кабилардир. Муваффақиятга эришиш вазиятини ўқувчининг оралик ҳаракатларини рағбатлантириш, яъни уни янги зўр беришларга махсус ундаш йўли билан ҳам ташкил қилиш мумкин. Муваффақият вазиятларни яратишда у ёки бу топшириқларни бажариш жараёнида қулай маънавий-руҳий муҳитни таъминлаш муҳим ўрин эгаллайди.

Рағбатлантириш ва танбех бериш усуллари ўзига хос хусусиятларга эгадир. Масалан, баҳо билан рағбатлантириш, махсус танланган топшириқлар бериш йўли билан ўқишдаги муваффақият вазиятини яратиш, имтиёзли стипендиялар тайинлаш, тажриба ва лаборатория ишларини тайёрлашда қатнашиш, экранларни жиҳозлашлари орқали рағбатлантириш; билимларни жамоатчилик томонидан кўриш яқунларига қараб рағбатлантириш ва ҳоказолар.

ўқишга доир танбехлар: дарс пайтидаги оғзаки танбех беришлар, баҳосини пасайтириб қўйиш, иш дафтарига ёзишлар, хатоларни кўрсатиш, қойиш ва бошқа усуллар орқали қўлланилади. Қойиш ҳамда жазолашнинг бошқа турларини қўллаш ўқитиш усулида истисно ҳол, чунки бу усул энг сўнгги иложсиз чора ҳисобланади. Мактабда, шунингдек барча таълим муассасаларида ўқувчи-талабаларга тан жазоси бериш, ўзлаштираолмагани учун уни ҳақорат қилиш, шахсига тегиш, ёмон иборалар билан сўқиш асло

мумкин эмас. Педагогик фаолиятда бу каби усуллардан фойдаланиш ножиоз саналади.

5. 4. Муаммоли таълимнинг мақсад ва моҳияти

Муаммоли таълим деганда ўқув материални ўқувчи-талабалар онгида илмий изланишга ўхшаш билиш вазифалари ва муаммоларини вужудга келтирадиган йусинда ўргатиш тушунилади. Таълимда муаммоли ёндошишни жорий этишдан мақсад ҳозирги таълим жараёнини ўқувчи-талабаларнинг ижодий фикрлашини фаол ривожлантирадиган усуллар билан тўлдиришдан иборат.

Таълимда муаммоли ёндошиш ўқув дастурларида ҳам, ўқитувчи билимларини баён этишда ҳам, ўқувчиларнинг мустақил иши ва ҳоказоларда ҳам ўзининг ифодасини топиши лозим. ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятида муаммоли вазиятларнинг шаклланиши уларнинг шахсида қизиқувчанлик, ўткир зеҳнлилик, мустақиллик, ўқишга қизиқиш ва ижодга интилиш каби фазилатларни тарбиялайди.

Ҳар қандай таълим ўқувчи учун муаммолидир, чунки таълим ўқувчини унга ҳозиргача номаълум бўлган нарса билан таништиради: ўқувчи янги материални ўзлаштириши, ўқитувчи ва таълим муассасасининг ҳамма талабларини бажариши керак. ўқитувчи ўқувчилар олдида ҳар қандай ўқув муаммосини эмас, балки фақат улар тушуна оладиган ва субъектив муаммо сифатида қабул қилиши мумкин бўлган муаммоларни кўйиши керак. ўқувчи онгида муаммоли вазиятларни вужудга келтириш, ўқувчининг фаол фикрлаш фаолияти, ўқув материални пухта ўзлаштириб олишлари ҳақида Шарқ педагоглари ҳам ўзларининг қимматли фикрларини айтиб ўтганлар.

Улуғ мутафаккир Абу Райҳон Беруний (973-1048) ўзининг педагогик ва дидактик қарашларида, ўқувчиларни ўқитиш ҳамда тарбиялаш жараёнида биринчидан, турли мавзуларда мулоҳазалар юритишни, шунингдек, ўқувчининг зерикмаслигини, хотирасига малол келтирмасликни таъкидлаб, «Бизнинг мақсадимиз ўқувчини толиқтириб қўймасликдир, ҳа деб бир нарсани ўқийбериш зерикарли бўлади ва тоқатни тоқ қилади. Агар ўқувчи бир масаладан бошқа масалага ўтиб турса, у худди турли-туман боғ-роғларда сайр қилгандек бўлади, бир боғдан ўтар-ўтмас, бошқа боғ бошланади. Киши уларнинг ҳаммасини кўргиси ва томоша қилгиси келади. Ҳар бир янги воқеа – нарса кишига роҳат бағишлайди», деган эди.

Муаммоли баён қилиш жараёнида изланишни ўқитувчи олиб боради, ўқувчиларга илмий исботлаш бўйича фикрлаш намунасини кўрсатади, ўқувчи-

талабалар фақат унинг мулоҳазасини кузатадилар, муаммони ҳал қилишга қаратилган қизиқишни ўрганадилар. Муаммо – моҳиятига кўра, зудлик билан ҳал этилиши лозим бўлган масаладир. Ўқитувчи ўқувчи олдида муаммо кўяр экан, муаммони ҳал қилиш йўлидаги ҳаракат давомида ўқувчи изланади, ижод қилишга интилади, муаммо устида аввалги тажриба ва билимга таянган ҳолда фикр юритади.

Шу ўринда шуни айтиш жоизки, таълим жараёнининг самарали бўлишида муаммоли вазиятлар яратилган вақтда ўқувчи-талабалар ҳам фаол қатнашиши ҳамда ўртага ташланган муаммоларни ўзлари ҳам ҳал қилишга эришиши мумкин. Бундай ҳолларда дарс қизиқарли бўлади ва ўқувчилар шу мавзунини яхши ўзлаштиради, шунингдек етарли билим-кўнималарга эга бўлишади.

Ўқитиш жараёнида ўқувчиларни билишга ҳавас, излаш-қидиришга ундайдиган масалаларни ҳал қилиш жараёни билан боғлиқ интеллектуал ҳислар ва руҳий кечинмалар ҳосил қиладиган муаммоли вазиятлар яратиш мумкин. Бу каби муаммоли вазиятлар яратишда маҳоратли педагоглар илғор педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда дарсни ташкил этиши ҳам мақсадга мувофиқдир.

Ҳозирги олий мактабдаги самарали ўқитиш усулларидадан бўлган муаммоли ўқитишнинг моҳиятини ўқитувчи томонидан талабаларнинг ўқув ишларида муаммоли вазиятни вужудга келтириш ва ўқув вазифаларини, муаммоларини ва саволларини ҳал қилиш орқали янги билимларни ўзлаштириш бўйича уларнинг билиш фаолиятини бошқараш ташкил этади.

Таълим жараёнида муаммоли вазиятни вужудга келтириш, ундан фойдаланиш усуллари яратиш, таълим тизимининг ҳар бир босқичида ўрганиладиган фанларга хосдир. Муаммоли вазият фаннинг мазмуни, ўзига хос характер хусусиятлари, уни ўрганиш усуллари хисобга олган ҳолда яратилади. Фикримизча, муаммоли таълим ўқувчилар олдида муаммоли савол ёки топшириқлар қўйиш, муаммоли вазият яратиш, муаммоларни мустақил ҳал этиш, изланишга ўқувчиларни жалб этиш, якуний хулосалар чиқариш каби жараёнларни ўз ичига олади.

Муаммоли таълим муаммоли вазият, ўқув муаммоси, муаммоли савол, муаммоли топшириқ каби категорияларни ўз ичига олади. Муаммоли таълимни амалга оширишда ўқитувчи тўғри савол қўя билиши лозим.

Демак, муаммоли таълим – ўқувчи (талаба)ни мустақил фикрлаши ва изланишга ўргатиши, номаълум нарсаларни ёритишга эришишни тарбиялайди

ҳамда илмий билишни ривожлантиришга асосий кумак беради. Шунингдек, муаммоли ўқитиш билимларни онгли ва мустақил ўзлаштириш, атроф-муҳитга ўзининг фаол муносабатини белгилаб олишда, талабалар билиш фаолиятини жонлантиришда катта имкониятларга эга.

Xulosa

- Men bitiruv malakaviy ishimni bajarish davomida quyidagi xulosalarga ega bo'ldim

- Bitiruv malakaviy ishimni o'qitish metodikasini umumiy masalalari qismi bo'yicha quyidagi xulosalarni bildirmoqchiman:

- Bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini hamda o'qituvchining axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim jarayonini samaradorligini oshiradi.

- Kasb-hunar kollejlarida zamon talablariga javob bera oladigan elektr energetika sohasi bhyicha tutaxassislar tayyorlash uchun kasb-hunar kollejlarini malakali,o'z kasbini sevadigan, yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bilan ta'minlash zarur.

- Kasb-hunar kollejlarining o'zaro hamkorlik aloqalarini boshqa yurtlar ta'lim muassasalari bilan o'rnatish, mustahkamlash, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish lozim.

- Kasb-hunar kollejlarini moddiy texnika bazasini yanada mustahkamlash, zamonaviy vosita va jihozlar, texnik vositalar bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

- O'zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik jamiyatning qurilishi, ko'p vkladli iqtisodiyotning qaror topishi, xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatida ham jiddiy o'zgarishlarni qaror topishini ta'minladi.

- O'zbekistonda barcha tarmoqlar singari agrar soha tarmog'i ham davlat tomonidan boshqariladi. Qishloq xo'jalik korxonalari agrosanoat majmuasining birlamchi bo'g'ini bo'lib, uning iqtisodiy asosini tashkil etadi.

- Mamlakat agrar tarmog'ida olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida ish beruvchilar va yollanma ishlovchi xodimlarning mehnatga bo'lgan munosabatlari va ijtimoiy mehnat munosabatlarida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat mulkining isloh qilinishi, mulkni davlat tasarrufidan chiqarilishi va

xususiylao'tirilishi oqibatida odamlarning mulkka va mehnatga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarib, u yanada samaraliroq faoliyat olib borishga, ish vaqtidan va mavjud imkoniyatlardan to'la foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga harakat qilmoqda.

- Bozor munosabatlari va hozirgi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida taqchil resurslardan samarali foydalanish va mavjud imkoniyatlardan to'la tukis qondirishning asosiy yo'llaridan biri xo'jalik yuritishning eng samarali tizimini qo'llashdan iboratdir.

- Xo'jalik yuritish tizimi deb, damiyatni talab darajasidagi arzon, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash maqsadida aniq yo'naltirilgan va ishlab chiqarishni olib borishda qo'llaniladigan bir biri bilan bog'liq va bir birini to'ldiradigan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va texnikaviy tadbirlar , choralar majmuasi tushuniladi.

- Shu jihatdan olib qaraganda O'zbekiston fermerlik harakati xo'jalik yuritishning yangi tizimi bo'lib u bugungi kunda o'zining afzalliklarini namoyon qildi va qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning eng samarali va istiqbolli shakliga aylandi.

- Mamlakatda fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ularni qayta tashkil etish, restrukturizasiyalash jarayonlari natijasida erishilgan quyidagi yutuq va kamchiliklar hamda echimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi.

- Qishloq xo'jaligida mulk munosabatlarining o'zgarishi ya'ni qishloq xo'jaligida xususiy mulkning qaror topganligi qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni erga, mulkka, mehnatga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgarganligini ta'minladi.

- YERdan foydalanishning uzoq muddatli ijara shartnomalarning tashkil etilishi ishlab chiqaruvchilarni ishonchini ta'minladi va ular erlarning unumdorligini saqlash va oshirib borish chora tadbirlarini amalga oshirib kelishini ta'minlamoqda.

- Davlat buyurtmasi va shartnoma ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni erkin kelishilgan bahoda tasarruf etish, ishlab chiqaruvchilarni moddiy manfaatdorligini ta'minladi va o'z navbatida yanada ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga undadi.

- Xo'jalik yuritishning fermerlik harakatida quyidagi muammolar mavjudligi ham ko'zga tashlanmoqda.

- Jahon bozorida paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlarining xarid baholari tushib borayotganligi sababli fermer xo'jaliklarining pul daromadlari etarli miqdorda ta'minlanmasligi oqibatida ularning moddiy texnika bazasi shakllanmayapti.

- Qishdoq xo'jalik mahsulotlari ayrim turlarining xarid baholarining pasayishi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy resurs (yonilg'i, o'g'it, elektr energiya, urug'lik va boshqa) larning xarid baholarining oshib ketishi oqibatida korxonada mehnatga haq to'lash fondining keskin kamayishi kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida mehnatkashlarning daromadlarini pasayishiga, ularni turmush darajasini yomonlashishiga sabab bo'lmoqda.

- Fermer xo'jaligi ixtisoslashuvini kamaytirish masalalari yomon ahvolda borilayotgan islohotga qaramasdan joylarda fermer xo'jaliklari rahbarlarini tanlab olish, ularga er maydonlarini ajratib berish ishlarida jiddiy hatoliklarga yo'l qo'yilmoqda, bunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan habari yo'q. Shu sohada etarli ma'tumot, malaka va tadbirkorlik faoliyatiga ega bo'lmagan shaxslarni kirib qolganligi va oqibatda er-suv resurslari va boshqa mavjud imkoniyatlardan foydalanishda salbiy holatlar yuzaga kelmoqda.

Fermer xo'jaliklarini er maydonlarini kengaytirish maqsadida o'tkazilgan tender jarayonida fermer xo'jaliklarini er maydonlari ajratib berish erlarning tutashligiga ahamiyat qaratilmadi oqibatda bitta fermerga qarashli bulgan dalalarning tarqoqligi yuzaga keldi. Bu o'z navbatida mazkur dalalarni nazorat qilish, ularda mehnatni boshqarishni tashkil qilishda jiddiy muammolarni yuzaga kelishida sabab bo'lmoqda.

Shundan kelib chiqib joriy yilda oldimizda turgan eng asosiy ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda eng ustuvor bo'lgan yo'nalishlari, irrigasiya va meliorasiya tizimlarini takomillashtirish, urug'chilikni rivojlantirish, o'simliklarni himoya qilish, qishloqda ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etishdagi innovasion

loyihalarni kadrlar tayyorlash, chet el tajribalarini o'zimizda joriy etish imkoniyatini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent, O'zbekiston, 2010y.
2. Karimov I.A. Bizning yo'limiz-demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi “Xalq so'zi” gazetasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzulmani yanada rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida 2010 yil 20 yanvarda PQ 1041 son
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Majlisi Qarori 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida 2010 yil 13 fevral
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanad takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” gi 2011 yil 12 maydagi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” davlat dasturi to'g'risidagi 2011 yil 7 fevraldagi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga investision dasturi to'g'risidagi 1668 sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini kreditlash hajmini oshirish bo'ymcha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2011 yil 11 martdagi qarori.
9. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar №14 (5434)
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to'g'risida axborot “Xalq so'zi” gazetasi 2012 yil 20 yanvar.

11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi 2000yil 19 maydagi 195 son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida “Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 martdagi 79 sonli qarori.

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: Iqtisodiyotning ral sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida 2009 yil 28 noyabr PF-4050 son.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik subektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi 2011 yil 4 apreldagi farmoni. “Xalq so'zi” gazetasi 2011 yil 5 aprel.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar bo'g'risida” gi PF-4354 sonli farmoni.

15.Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” Toshkent, “Ma'naviyat” 2008 yil.

16.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.

17.Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshent “Sharq” 1998 yil.

18.Karimov I.A. “O'zbekiston XX asrga intilmoqda” Toshkent 1999 yil

19.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent “O'zbekiston” 2010 yil.

20.Karimov I.A. “ Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatna barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. // Halq so'zi 2012 yil 18 fevral.

21.Jo'raev R.H. Pedagogik va axborot texnologiyalari yutuqlari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent 2003 yil.

22.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, “Nasaf” 2001 yil.

23.N.N.Azizxo'jaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent 2003 yil.

24.G'afforova T. va boshqalar Ta'limning ilg'or texnologiyalari. Qarshi "Nasaf" 2003 yil.

25.O'zbekiston iqtisodiyoti axborotnomasi №3 2011 yil.

26.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyasi va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. Statistik to'plam. Toshkent "O'zbekiston" 2011 yil.

27.Jo'raev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish . Darslik, Toshkent "istiqlol" 2004 yil.

28.R.O. Alimov va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari."nazariya va amaliyot" Toshkent 2006 yil

Mundarija

Kirish	5
1. Fan va mavzuni tasnifi	6
1.1. Kasb – hunar kollejlarning maqsad va vazifalari.....	6
1.2. Kasb – hunar kollejlardagi ta'lim jarayonining mohiyati.....	9
2. O'qitishning metodikasini umumiy masalalari.....	10
2.1. Iqtisodiyot ka Kasb – hunar kollejlarda o'qitishning mohiyati	10
2.2. Ta'lim berish jarayonining mazmuni.....	16
2.3. Didaktikprinsiplarni o'quv jarayoni qo'llash.....	18
2.4. Ta`lim texnologiyasi nazariyasining shakllanish bosqichlari.....	20
2.5. An`anaviy ta`limning afzalliklari va kamchiliklari.....	21
2.6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari.....	22
2.7. Muammoli o`qitish texnologiyasi.....	23
2.8. Tabaqalashtirib o`qitish texnologiyasi	25
2.9. Yakka tartibdagi o`qitish texnologiyasi.....	27
2.10. Ishbilarmonlik o`yinlar texnologiyasi	29
2.11. Keys-stadi texnologiyasi.....	32
2.12. Modulli o`qitish texnologiyasi.....	34
2.13. Internet tarmog`i va uning ahamiyati.....	36
3. Ijtimoiy – iqtisodiy masalalar majmuasi.....	41
3.1. Fermer xo`jaliklarining tashkiliy iqtisodiy asoslari.....	41

3.2. Fermer xo`jaliklarining optimallashtirishning iqtisodiyot va boshqarishda tutgan o`rni va ahamiyati.....	45
3.3. Fermer xo`jaliklarining optimallashtirish asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari.....	50
3.4. Mamlakat Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo`nalishlari taxlili.....	55
3.5. Mamlakat Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni moderinizatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar tahlili.....	60
3.6. Mamlakat Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi asosiy yo`nalishlari.....	67
4. Nazariy dars o'tish metodikasi.....	70
4.1. Kasb – hunar kollejlarida nazariy ta'lim berishning mohiyati.....	70
4.2. “Fermer xo`jaliklarini yiriklashtirishning iqtisodiyotga va boshqarishga ta`siri” mavzusida nazariy ta'lim berish texnologiyasining modeli.....	71
4.3. Nazariy mashg`ulotning texnologik xaritasi	75
5. Amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi	80
5.1 Amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish.....	80
5.2. ““Fermer xo`jaliklarini yiriklashtirishning iqtisodiyotga va boshqarishga ta`siri” mavzusida amaliy ta'lim berish texnologiyasining modeli.....	88
5.3. Amaliy mashg'ulotni o'tkazish metodikasi.....	101
Xulosa.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar.....	92
Mundarija	95